

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA

MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

FILOLOGIYA FAKULTETI

O'ZBEK FILOLOGIYASI KAFEDRASI

IV KURS KUNDUZGI BO'LIM BITIRUVCHISI

AMIRQULOVA MUHABBATNING

**“Boborahim Mashrab musaddaslari va musabba’larining
g`oyaviy-badiiy tahlili”**

mavzusidagi

**5220100 – Filologiya (o'zbek filologiyasi) yo'nalishida bakalavr
ilmiy darajasini olish uchun yozgan**

MALAKAVIY BITIRUV ISHI

(2015-2016 - o'quv yili)

**Ilmiy rahbar: filologiya fanlari nomzodi,
dotsent B.Jo'raeva**

Buxoro - 2016

MAVZU: Boborahim Mashrab musaddaslari va musabba'larining g`oyaviy-badiiy tahlili.

REJA:

Kirish:

- Mavzuning dolzarbligi.
- Mavzuning o'rganilishi darajasi.
- Ishning metodologik asosi.
- Ishning ilmiy yangiligi.
- Malakaviy bitiruv ishining maqsad va vazifalari.
- Ilmiy ishning tuzilishi.

I. Bob. Boborahim Mashrab musaddaslarining g`oyaviy-badiiy tahlili.

1.1. Boborahim Mashrab o'zbek adabiyotining buyuk namoyandasi.

1.2. Musaddas janrining xususiyatlari.

1.3. Shoir musaddaslarining g`oyaviy-badiiy tahlili.

II. BOB. Boborahim Mashrab musabba'larining o'ziga xos xususiyatlari.

2.1. O'zbek adabiyotida musabba' janrining o'rni.

2.2. Shoir musabba'larining g`oyaviy-badiiy tahlili.

2.3. Adib musabba'larida badiiy san'atning qo'llanilishi.

Xulosa.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. Adabiyot insonshunoslik fanidir. Adabiyot borki insonning ichki kechinmalarni chiroyli tarzda ifodalanadi. Odamizod badiiy asarlarni o'qib ruhiy ozuqa olish orqali, o'zini engil his qiladi. Mustaqillik sharofati ila ko'p asrlik madaniyatimizning bebaho boyliklaridan to'la-to'kis bahramand bo'lish baxtiga erishdik. Dunyoga tanilgan fan va san'atimiz, adabiyotimizning boy tarixini, buyuk allomalarimiz, shoirlarimiz merosini atroflicha va teran o'rganish uchun keng imkoniyatlarga ega bo'ldik. Ushbu sohada amalga oshirilayotgan ishlar prezidentimiz Islom Karimovning quyidagi so'zlarida o'z yorqin ifodasini topgan: "Hayotimizning barcha sohalarida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohatlarimizning samaradorligi, avvalo, xalq ma'naviyatining tiklanishi, boy tarixiy merosimizning chuqur o'rganilishi, an'ana va urf-odatlarimizning saqlanishi, madaniyat va san'at, fan va ta'lim rivoji, eng muhimi, jamiyat tafakkurining o'zgarishi va yuksalishi bilan uzviy bog'liqdir".¹

Har bir ijodkor, shoir bo'lsin yo yozuvchi qaysi tilda ijod qilmasin, u bashariyat adibidir. Chunki undan q olgan ma'naviy meros, bebaho asarlar faqat bir millatni emas, balki butun insoniyatni tarbiyalaydi. Uning ijodiyotidan barcha qalam ahli, ma'rifatli kishilar bir xil foydalanadi va bahra oladi. Shunday shoirlaridan biri Sharq va G'arb adabiyotining muxlislarini hayratga solgan Boborahim Mashrab hali hayotlik chog'ida o'z ijodi bilan ma'lum va mashhur bo'ldi. Uning dilkash g'azallari dunyo yuzini ko'rish bilan, bashariyat qalbidan joy oldi, shuncha asrlar o'tgan bo'lsa ham, uning ma'naviy merosi mohiyati baland bo'liyaptiki, pasaygani yo'q. Xususan, shoirning g'azallari u hayot bo'lgan davrlardan boshlab oddiy xalq tomonidan goh she'r tarzida, goho qo'shiq tarzida ijro etib insonlar qalbidagi dardiga sherik bo'lgan desak mubolag'a bo'lmaydi. Hozirgi kunda ham uning g'azallari mashhur san'atkorlar

¹ Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch. Toshkent: "Ma'naviyat", 2008, 176 b.

tomonidan musiqaga solib, qo'shiq orqali odamlarni ruhiy va aqliy olamini egalayapti.

Ushbu ishning dolzarbligi ham shundaki, bugungi kunda xalqimiz va adabiyotimiz tarixini chuqur o'rganish, undagi yuksak ezgu g'oyalarni yoshlar ongiga sindirish, go'zal badiiy lirik obrazlardan bahramand bo'lish, o'z fikri va qarashiga ega farzandlarni tarbiyalash uchun katta darsxona vazifasini o'tadi deb umid qilamiz.

Shoh Boborahim Mashrab hayoti va ijodiga nazar solar ekanmiz, uning go'zal betakror g'oyalari kishini ruhiy olamiga jon bag'ishlab hayotini mazmunli, go'zal va chiroyli o'tkazishga undaydi. Buyuk mutasavvuf shoir Boborahim Mashrab hayoti va ijodida chalkashlik, noaniqlik, turli afsona va to'qimalar orqali etib kelgan ma'lumotlar talaygina.

Mashrab haqida to'liq va to'g'ri ma'lumot kam uchraydi. Shuning uchun u haqida XVII asr tarixiy manbalarida hech qanday ma'lumot berilmagan.

Xozirgacha mashrabshunoslar tomonidan yoritilib kelayotgan shoir tarjimai holining yagona manbai "Devoni Mashrab", "Qissai Mashrab", "Shoh Mashrab" kabi nomlar bilan mashhur va ma'lum bo'lgan xalq kitobidir. Ba'zi olimlar bu asar Pirmact Setoriy, Ishoq Bog'istoniy tomonidan yozilgan va ba'zilar Ruziboy Mashrab qalamiga mansub asar deb taxmin qilsalar ham, bu asar muallifi ilmiy jihatdan hanuzgacha aniqlanmagan.

Mana shu kabi og'ir va mas'uliyatli ishni aniqlashga kirishgan olimlardan A.Abdug'afforov bo'lib, u Mashrab xayotini chuqur o'rgandi, tadqiq etdi va adabiyot muxlislariga tanishtirdi.

Mustaqillik sharofati bilan ko'p mutafakkrilarimiz va adiblarimizning hayoti, ijodi har tomonlama o'rganilib aniq faktlar asosida tadqiqotlar olib borildi. Shunday ezgu ishlar sirasiga Boborahim Mashrab xayoti va ijodi kiradi. Adibning ma'naviy merosi qayta o'rganilib "Devon" shakliga chop ettirganligi fikrimizning dalilidir².

2.32. Mashrab Devon /Mas'ul muharrir V.Rahmonov.-T.: Yangi asr avlodi, 2006.-608-bet.

Istiqlolni qo'lga kiritganimizcha shoirning adabiy merosi xususida xam ancha munozarali muammolar bor edi. Xususan bizgacha etib kelgan "Mabdai nur" asari kimning qalamiga mansub? Boborahim Mashrab rostdan ham "Mabdai nur", "Kimyo" deb nomlanuvchi asarlar yozganmi-yo'qmi? Kabi savollarga Hoji Ismatulloh Abdulloh javob topdi va fikrlarini ilmiy jihatdan asoslab berdi. "Mabdai nur" Boborahim Mashrab ijodiga mansubligi aniqlangach, bu asar haqida va uning mazmun mundarijasiga atroflicha fikrlar yuritildi, tadqiqotlar olib borildi va olib borilayapti. Boborahim Mashrabning kichik she'riy janrlarga yozgan asarlari xam benihoyat ko'p, ularning mavzu olami keng, g'oyaviy jihatdan boy bo'lib yoshlarni shaxs sifatida tarbiyalab voyaga etish uchun katta ahamiyatga ega. Shu bois shoirning muxammaslari g'oyaviy-badiiy ahamiyati kabi masalalarga imkon qadar aniqlik kiritish bitiruv malakaviy ish oldiga quyilgan vazifalardandir.

Ushbu ishning dolzarbligi ham shundaki, bugungi kunda adabiyot tarixini o'rganish, ta'lim-tarbiya bilan bog'liq, g'oyalarni yoshlar ongiga singdirish, milliy g'oyalar asosida ruhan yetuk, shaxsiy fikrga ega, dunyo qarashi keng, barkamol avlodni tarbiyalash ta'lim oldidagi asosiy maqsaddir. Axloq ilmi milliy ma'naviyatimiz doirasida turli davrlarda turlicha yo'nalishlarda rivojlantirilgan. Bu haqda prezidentimiz Islom Karimov o'zlarining "Yuksak ma'naviyat – engilmas kuch" asarlarida ushbu fikrlarini bayon qilib o'tadilar: "Har qanday bosqin va istilolarga qaramasdan, har qanday og'ir va murakkab sharoitda ham ota-bobolarimiz o'zligini yo'qotmasdan, ma'naviy hayot mezonlari, odob-axloq qoidalariga amal qilib, komillik sari intilib yashagani bugun ham barchamizga ibrat bo'lib, kuch-quvvat bag'ishlab kelmoqda".³

Mavzuning o'rganilish darajasi ilmiy faoliyati bevosita Boborahim Mashrab hayoti va ijodini o'rganish bilan bog'liq bo'lgan va uning "Mabdai nur" asarini ham qaysidir darajada tadqiq etgan olimlarimizdan Abdurauf Fitrat, A.Hayitmetov, A.Abdug'afforov, M.Zokirov, Vohid Abdullaev, Z. Rizaev, Sh.Zununov, Rahimjon Vohidovlarning ilmiy ishlari orqali mashrabshunosligimiz

3. 6. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch. Toshkent: "Ma'naviyat", 2008,—B. 7.

shakllandi va rivojlandi. Sharqshunos Ismatulloh Abdulloh “Mab dai nur”ning Boborahim Mashrabga tegishli asar ekanligini isbotladi, Mu’min Hoshimxonov esa o’zining besh jildlik ilmiy ishida Boborahim Mashrab g’azaliyoti, “Mab dai nur”, “Kimyo” asarlari va yangi topilayotgan she’rlarini adabiy-badiiy, nuqtai nazardan tahlil etishga o’z hissasini qo’shdi. Yuqorida ta’kidlaganimizdek shoir adabiy merosini o’rganishga mashrabshunos va adabiyotshunos Jaloliddin Yusufiyning xizmati benihoyat kattadir. Adabiyotshunos mustaqillik yillarida tinim bilmay Boborahim Mashrab ijodini o’rganib tadqiqotlar olib bordi. Shu inson xizmati orqali shoirning mukammal “Devon”i bilan tanishdik. Biz bitiruv malakaviy ishimizni asosi manbasi ham shudir⁴.

Boborahim Mashrabning muxammaslari g’oyaviy-badiiy ahamiyati kabi masalalarga bag’ishlangan ishlar mavjud, lekin ilmiy yangiliklar hali oz miqdorni tashkil etadi. Yuqoridagilardan kelib chiqib, biz adibning muxammaslarining g’oyaviy-badiiy ahamiyatini o’rganish bog’liq masalani tahlil qilishni o’z oldimizga maqsad qilib qo’ydik.

Ilm-ma’rifatli xalq kimni sevish, kimlarga ishonish, nimani ardoqlash, nimaga intilishni bilishda unchalik xato qilmaydi. Boborahim Mashrabning adabiy merosi qadim-qadimdan xalqimizni qiziqtirgan, o’qib-o’rganishga ishtiyoq uyg’otib kelgan.

Ishning metodologik asosini O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan ishlab chiqilgan “Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi”dagi ko’rsatmalar, O’zbekiston Respublikasi prezidenti I.A.Karimovning milliy madaniyatni rivojlantirish, milliy mafkura va ma’naviy qadriyatlarga doir qarashlari tashkil etadi.

Ishning ilmiy-nazariy yunalishini belgilashda Abdurauf Fitrat, Ismatulloh Abdulloh, A. Abdug’afforov, M.Zokirov, Vohid Abdullayev, Jaloliddin Yusufiy kabi mashrabshunos va adabiyotshunos olimlarning asarlari

⁴ Mashrab. Devon. Nashrga tayyorlovchi Jaloliddin Yusufiy. “Yangi asr avlodi”, Toshkent. 2006 yil. 608-bet.

metodologik asos bo'lib xizmat qiladi. Tadqiqot maqsadidan kelib chiqib, ishda qiyosiy tahlil metodidan foydalanildi.

Ishning ilmiy yangiligi. Ushbu tadqiqotning natijalari va xulosalari adabiyotshunoslik va mumtoz adabiyot tarixini o'qtishida, ayniqsa shoirning she'riyatini xususan muxammaslarini o'rganish bilan bog'liq ilmiy tadqiqotlarda istifoda etilishi mumkin. Yana bu ishdan kurs ishi hamda referatlar yozishda foydalansa bo'ladi.

Malakaviy bitiruv ishining maqsad va vazifalari. Ushbu malakaviy bitiruv ishida mumtoz adabiyot vakili Boborahim Mashrab va uning adabiy merosi, xususan Sharq adabiyotining she'riy janrlardan biri muxammas janrini o'rganish, shoir qalamiga mansub musaddaslari va musabba'larining o'rganib ularni g'oyaviy-badiiy jihatdan tadqiq ettishni oldimizga maqsad qilib qo'ydik. Bu maqsadlarni amalga oshirishda quyidagi vazifalarni amalga oshirish kuzlanmokda:

- musaddaslari va musabba'larining haqidagi ilmiy tadqiqotlarda ilgari surilgan fikrlarni o'rganish;
- musaddaslari va musabba'larining tarbiyaviy jihatini o'rganib tadqiq ettish va izoxlash;
- musaddaslari va musabba'larining bilan bog'liq tasvirlarni g'oyaviy-badiiy qimmatini imkon qadar ochib berish;
- adib musaddaslari va musabba'larining mavzu olamini aniqlash;
- adib o'z maqsad va muddaolarini badiiy ifodalash uchun musaddaslari va musabba'larining tashbeh va boshqa she'riy san'atlaridan qay darajada foydalanganligini aniqlash;
- shoir musaddaslari va musabba'larining talmeh, mubolag'a, nido va tazod san'atlarining berilishini tahlil orqali aniqlash.

Ilmiy ishning tuzilishi. Malakaviy bitiruv ishi kirish, ikki bob, olti bo'lim, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

I. Bob. Boborahim Mashrab musaddaslarining g'oyaviy-badiiy tahlili

1.1. Boborahim Mashrab o'zbek adabiyotining buyuk namoyandasi

Buyuk shoir va adib Boborahim Mashrab hayoti va ijodiga nazar solar ekanmiz, uning go'zal betakror g'oyalari kishini ruhiy olamiga jon bag'ishlab hayotini mazmunli o'tkazishga undaydi. Mashrab haqida to'liq va to'g'ri ma'lumot kam uchraydi. Shuning uchun u haqida XVII asr tarixiy manbalarida hech qanday ma'lumot berilmagan.

Hozirgacha mashrabshunoslar tomonidan yoritilib kelayotgan shoir tarjimai holining yagona manbai "Devoni Mashrab", "Qissai Mashrab", "Shoh Mashrab" kabi nomlar bilan yoyilgan xalq kitobidir. Ba'zi olimlar bu asar Pirmact Setoriy, Ishoq Bog'istoniy tomonidan yozilgan va ba'zilar Ro'ziboy Mashrab qalamiga mansub asar, deb taxmin qilsalar ham, bu asar muallifi ilmiy jihatdan hanuzgacha aniqlanmagan. Mana shu kabi og'ir va mas'uliyatli ishni aniqlashga kirishgan olimlardan Abdurauf Fitrat shoir hayoti va ijodini chuqur o'rganib xususan "Mabdai nur" asari Boborahim Mashrabga daxldorligini ilmiy isbotlab berdi. Quyidagi ma'lumot fikrimizni tasdiqaydi: Abdurauf Fitrat adabiyotshunos va mashrabshunos sifatida Boborahim Mashrabning "Mabdai nur" asari xususida shunday yozadi: "Endi Mashrabg'a nisbat berilgan "Mabdai nur" kitobiga ko'chaylik 1912 yilda Buxoroda tosh bosmada bosilgan bu kitob mashhur Jaloliddin Rumiyning masnaviysig'a o'zbek tilida sharh kabi yozilg'andir. Jaloliddin Rumiyning masnaviysidan ba'zi baytlar oling'an. Har baytining forsi(y)cha matnidan keyin ayni vaznda o'zbekcha manzum sharh boshlanadir. Sharhda Jaloliddin Rumiyning so'fiyona ramzlari izoh etiladir⁵".

Bizgacha etib kelgan "Mabdai nur" asari kimning qalamiga mansub? Boborahim Mashrab rostdan ham "Mabdai nur", "Kimyo" deb nomlanuvchi asarlar yozganmi-yo'qmi? Degan savolga javob topish uchun Abdurauf Fitratdan keyin. Bu savollarga avval A. Abdug'afforov so'ng Hoji Ismatulloh Abdulloh

⁵ Абдурауф Фитрат. Танланган асар. 2 жилд. Илмий асарлар. Тошкент. "Маънавият", 2000.102-бет.

5.Тўхсанов Қ. «Мабдаи нур» асарининг мундарижаси хақида. Филология ва усулий масалалари. Илмий-усулий маколалар туплами 1-китоб. Т.: «Фан» нашриёти, 2008, 32-36-бетлар.

javob topdi va fikrlarini ilmiy jihatdan asoslab berdi. “Mabdai nur” Boborahim Mashrab ijodiga mansubligi aniqlangach, bu asar haqida va uning mazmun mundarijasiga atroflicha fikr yuritilmogʻi kerak. Mazkur asarning mavzu olami juda keng boʻlib, adib oʻz zamonasining ijobiy va salbiy holatlarini badiiy talqin etishga muyassar boʻlgan.

Bugungi kunda xalqimiz va adabiyotimiz tarixini farzand tarbiyasidan ayro holda oʻrganib boʻlmaydi. Mashrab bu asarida nazmiy hikoyalar orqali farzand tarbiyasini turli holatlar bilan tasvirlagan. “Mabdai nur” asari padnoma asar boʻlib yosh avlodni tarbiyalashga ahamiyatlidir. Asardagi hikoyatlarning mazmun va mundarijasi shundan dalolat beradi. Darhaqiqat asarda bir qator hikoyatlar borki farzand tarbiyasiga bagʻishlagan. Shuningdek uni kichik janrda yaratgan asarlarida ham mazkur mavzu ifodasini topgan. Shuni inobatga olgan holda bugungi vazifalar nimdan iborat? degan savolga javob topishga harakat qildik.

Bugungi avlodning vazifasi shundan iboratki, oʻtmish avlodlarni oʻgitini oʻrganib, unga amal qilib, muqaddas yurti bundan ham ziyodroq obod etib, kelajak farzandlarga etkazishdir. Bu uchun zamonaviy dunyoviy ilmlarni chuqurroq oʻrgatib, oʻz fikriga ega, barkamol shaxs qilib tarbiyalash lozim. Shundagina ota-ona, millat va Vatan oldidagi farzandlik burchimizni ado qilishimiz mumkin.

Oʻzbek mumtoz adabiyotida oʻziga xos uslubga, ijodga ega boʻlgan shoirlarimizdan biri Boborahim Mashrabdir. Oʻz hayotini Oʻrta Osiyoning koʻp shahar va qishloqlarida qalandarona yashab oʻtkazgan. Shoir faoliyatiga karomatpesha bir avliyo, darvesh, qalandar sifatida xalq katta ixlos va ehtirom bilan qaragan. Shuning uchun oʻz zamonasidan boshlab Mashrabning asarlari xalq orasida keng yoyilgan. U haqida koʻplab rivoyatlar yaratilgan. Majzub Namangoniyning "Tazkirat ul-avliyo", Isho q Bogʻistoniyning "Tazkirai qalandaron", Malexo Samarqandiyning "Muzakkiri asxob" kabi tazkiralarida Hakimxon Toʻraning "Muntaxab ut-tavorix", Mirzo Olimning "Ansab us-salotin" asarlarida ham shoir haqida ayrim maʼlumotlar, mulohazalar uchraydi. Mashrabning shaxs va ijodkor sifatidagi qiyofasi haqida mukammalroq tasavvur

hosil qiluvchi manba bu Pirmat Setoriy tomonidan tuzilgan "Qissai Mashrab"- dir. U XX asr boshlariga qadar "Devona Mashrab", "Shoh Mashrab", "Eshon Mashrab", "Qissai Mashrab" kabi nomlar bilan juda ko'p nusxalarda chop etilgan. Mazkur kitoblarda shoirning hayoti, ijodi, insoniylik fazilatlarini, kiyinishi, yashash tarzi xuddi bir afsonaviy shaxs sifatida bayon qilingan. Xususan "Qissai Mashrab"ni mutolaa qilar ekansiz, uning portreti shunday go'zal tarzda tasvirlaganki, shoirga bo'lgan mehringiz yanada oshadi. U bilan suhbat qilib, she'rlarini diqqat bilan tinglashingiz keladi.

Shoir hayoti, ijodi borasida o'zbek adabiyotshunos olimlarimizdan Abdurauf Fitrat, Izzat Sulton, Vohid Zohidov, Ibrohim Mo'minov, G'afur G'ulom, Abdukodir Xayitmetov, A.Abdufufurov, E. Shodiev, Ismatillo Abdullaev, Rahimjon Voxidov, Jaloliddin Yusupov kabilar ham bir qancha tadqiqotlar olib borilgan. Ularda Mashrab shaxsi, ijodi bilan bog'liq turli masalalar yoritilgan.

Ammo, mustaqilligimizning benazir sharofati bilan Boborahim Mashrab ijodi o'zining xolis bahosini oldi. Olimlarimiz uning asarlariga teranroq nazar tashlanmoqdalar. Jumladan, Ibrohim Haqqul, Najmiddin Komilov va N.Jumaxo'janing ilmiy qarashlari fikrimizni isbotidir. Ular o'z maqola va tadqiqotlariga shoirning dunyoqarashi, falsafasini atroflicha yoritishga harakat qilishgan.

Ko'ringanidek, Mashrab hayoti va ijodi xususida ancha tadqiqot ishlari amalga oshirilgan. Ammo, biz hali shoir shaxsini, dunyoqarashiyu falsafasini, asarlari mohiyatini to'raligicha o'rganganimiz yo'q. Bu borada hali yechimini kutayotgan muammolar juda ko'p.

Shoir tarjimai holi va ijodiy faoliyatini yoritishda "Qissayi Mashrab"ning o'ziga xos o'rni bor. Boborahim Mashrab 1640 yilda Namanganda Valibobo bo'zchi oilasida dunyoga kelgan. Otadan yosh etim qolgan. Shunga qaramay chuqur bilim olishga harakat qiladi. Dastlab o'z qishlog'idagi mulladan tahsil olib savod chiqaradi. Uning bolaligi, tahsil yillari haqida "Qissayi Mashrab"da ko'p rivoyatlar keltirilgan. Ulardan biz uning yoshligidan ilohiy jazba tekkan, g'ayri oddiy, g'ayb asroridan voqif bir inson bo'lganini ko'ramiz. Jumladan, ilk tahsil

kunlarining birida ustozidan "alif" deyishini so'raydi, "Alif" deydi. Endi "be" (arab alifbosidagi 2-xarf) deng, deydi. Shunda shoh Mashrab ustozlaridan "alif" va "be"ning ma'nosini tushuntirib berishni so'raydilar. Shunda domla biroz achchig'lanadi. Buni ko'rgan Mashrab aytdilar: "Ey domla "alif"ni ma'nosini siz aytmangiz man aytarman". Ustozlari aytdilar: Ey o'g'lum, "alif"ni ma'nisi nimadur?" Shoh Mashrab aytdilar: "Domla, "alif"ni ma'nisi birdur. Ul sababdin "Be" demasman. Mundin o'tmak xatodur". Buni eshitgan ustoz shogirdning quvvai afkoridan hayratda qoladilar. Chunki shunday yoshda olam va odamning mohiyatini bunchalik teran anglash g'ayri odatiy hol edi. Bu rivoyat bizni Mashrab dunyoqarashining eng muhim asrori bilan oshno etadi. U butun borliqni Ollohning zuhuri deb bilishini, Olloh bitta, boshqa barcha mavjudot uning tajallisi deb tushunishini anglatadi. Birgina rivoyatning mazmunidan ma'lum bo'ladiki, Boborahim Mashrab oddiy inson emas, balki Olloh nazar qilgan buyuk iste'dod sohibidir.

Uning bunday o'tkir zihnini ko'rgan ota-onasi zamonasining eng ulug' shayxlaridan bo'lgan Mulla bozor Oxund qo'lga tahsil uchun topshiradilar. Mashrab u erda diniy tasavvufiy falsafani o'rganadi. Mansur Halloj, Farididdin Attor, Nasimiy, Ibrohim Adham dunyoqarashi bilan tanishadi. Keyinchalik shu insonlarni o'z g'azallariga qayta-qayta tilga oladi, ularning ruhiy poklaridan madad so'raydi. Hofiz, Lutfiy, Navoiy she'riyatidan bahramand bo'ladi. Ularning ko'plab asarlarini yod oladi. Ulardan ilhomlanib, o'z tuyg'ulari, ruhiyatining rang-barang manzaralarini ifodalab o'ziga xos asarlar yarata boshlaydi. Shu buyuklar ta'sirida yozilgan asarlari yanada qimmatli oshdi.

Mashrab Namanganda har tomonlama bilim olgandan keyin, undagi g'ayritabiiy layoqatni ko'rgan ustozidan uni Qashqarga Ofoq Xoja huzuriga bilimini yanada chuqurlashtirish maqsadida yuboradi.

Mashrab Ofoq Xoja dargohida 1665 yildan boshlab 7 yil xizmat qiladi. Shu yillarda u tariqat bosqichlarini, amaliyotini bosib o'tadi. Tasavvuf ta'limoti g'oyalarini she'riyatiga olib kiradi. " Qissayi Mashrab"da shoirning ilohiy ishq kuychisi ekanligi, bu ishq otashining me'yori hadisi borasida ham bir qancha

rivoyatlar keltiriladi. Shulardan birida hikoya qilinishicha, Mashrab Yorkentga borganda, chilim so'rab chekadi. Nafas tortib tutun chiqarganda, butun olam qorong'u bo'ladi. Ammo, chilimning sarxonasini olib erga qoqqanlarida xalq bir dona ham bang kuymaganligining guvohi bo'ladi. Bu albatta, bir tomondan Mashrabning karomatpeshaligini ko'rsatsa, ikkinchidan, shoir ishq shororasining o'tkirligini namoyish etadi. Bir o'rinda Mashrab namoz o'qib, "hu" deb nafas chiqarganlarida kuygan kabobning isi kelardi, deyiladi. Bunday qiziqarli va mazmun jihatdan boy rivoyatlar talaygina. Ularning har biri shoirning bir xislatini namoyish etadi.

Ko'rinib turibdiki, "Qissai Mashrab" rivoyat tarzida yaratilgan bo'lsa ham, bizga shoirning dunyoqarashi, shaxsiyati, asarlarining mazmun-mohiyatini anglashimizga asosiy manba vazifasini o'taydi. Undagi rivoyatlardan mantiqiy xulosalar chiqaramiz. Shuningdek shoir asarlarida bayon qilgan ayrim masalalarni qissada keltirgan fikrlarni muqoyasa etib, oydinlik kiritishimiz mumkin.

Boborahim Mashrab 1711 yilda Balx hokimi Mahmud Qatag'on tomonidan o'limga hukm qilingan va dorga osilgan.

Boborahim Mashrabning bizgacha she'rlaridan tashqari "Mabdai nur" va "Kimyo" asarlari ham yetib kelgan. Boborahim Mashrabning lirikasi maxsus o'zi hayot bo'lgan chog'ida devon tarzida tartib berilmagan. Uning merosi bizga "Qissai Mashrab"ning ko'plab nusxalari orqali yetib kelgan. U Rindiy, Umam, Mahdiy, Chinda va Mashrab taxalluslari bilan she'rlar yozgan. Lekin mustaqillik sharofati bilan adabiyotshunoslarimiz, shoir ijodini chuqqur o'rganib uni devonini tartib berdilar. Yuqorida ta'kidlaganimizdek shoir adabiy merosini o'rganishga mashrabshunos va adabiyotshunos Jaloliddin Yusufiyning xizmati benihoyat kattadir. U mustaqillik yillarida tinim bilmay Boborahim Mashrab ijodini o'rganib tadqiqotlar olib bordi. Shu inson xizmati orqali shoirning mukammal "Devon"i bilan tanishdik. Bizning bitiruv malakaviy ishimizning asosiy manbasi ham shudir⁶.

⁶ Mashrab. Devon. Nashrga tayyorlovchi Jaloliddin Yusufiy. "Yangi asr avlodi", Toshkent. 2006 yil. 608-bet.

Boborahim Mashrab asarlari ikki — o'zbek va fors-tojik tilida yaratgan. "Qissai Mashrab"da shoir tomonidan Hofiz Sheroziy g'azallaridan yodan aytib berishidan ham ma'lum bo'ladiki, u har ikki tilni mukammal bilgan va ijod qilgan. Bu Mashrab yashagan zamonning an'alaridan biridir.

Shoir asarlari haqida uzoq yillar bahs-munozarali fikrlar bayon etib kelindi. Ammo, so'nggi yillarda uning she'rlari mohiyatini siyosatdan kelib chiqib emas, balki ob'yektiv anglay boshlayapmiz. Chunki Mashrabning ijodkor sifatidagi asl qiyofasi she'riyatidadir. U so'fiy shoirdir. Uning she'riyati asosida tasavvufiy g'oyalar talqini turadi. Xo'sh, tasavvufning o'zi nima? Tasavvuf — bu inson o'zini tanish orqali Ollohn tanish va sevish ilmidir. U "Insonning ichki olami, ya'ni botinini tadqiq etuvchi ilmdir". Inson umri tadriji ikki qarama qarshi qutb — ezgulik va yovuzlikning kurashidan iborat. Tasavvuf ta'limotining mohiyati odamzodga o'z vujudida mavjud afsoniy intilishlarni fosh etish, ularni yengish yo'llarini ko'rsatish, ruhidagi ilohiy fazilatlarni uyg'otish, taraqqiy toptirishdan iboratdir. Chunki insonning yashashdan bosh maqsadi ilohiylashish, asl mohiyatga yetishdir. Buning yo'li esa bitta. O'zini yengish, o'zidan o'tish va o'ziga yetishdir.

Mashrab she'riyatidagi asosiy g'oyalardan biri ham ana shu insonni o'ziga tanitishdan iboratdir. U ko'p yurtlar kezib, kishilarning yashash tarzi, tabiatini kuzatib, barcha fojialariga, iztiroblariga sabab ularning nafsiga degan xulosaga keldi. Ibrat sifatida, o'zi anglagan dunyo mohiyati borasidagi tasavvurlaridan zamondoshlarini ogoh etish maqsadida qalandarlik yo'lini tanlaydi. Chunki shu yo'l orqali shoir o'z nafsini tarbiyalab komil inson sifatida shakllanadi.

Mumtoz adabiyotda ayrim ijodkorlar qalandarlikning maqsadi va mohiyatini yorituvchi badiiy asarlar ham yaratishgan. Jumladan, Mashrab ham uning insonparvar g'oyalari oydinlashtiruvchi, izohlab beruvchi g'azallar yozgan. Uning "Qalandar bo'l, qalandar bo'l" radifli g'azali shunday asarlaridan biridir. Bu asar ham qalandarlikning, Mashrab ijodining o'zak-mohiyatini anglashimizda asos bo'ladi. Bunda lirik qahramon solikka asl maqsadga yetish, ruhan ozod bo'lish yo'lini ko'rsatib beradi. Lahzalik foniy ashyolardan g'olib kela olish va boqiylikka musharraf bo'lish sinoatidan saboq beradi:

Riyozatsiz bo'lay desang, tanim ozod yuray desang,
Jahonni sayr etay desang, qalandar bo'l, qalandar bo'l.

Inson umrini ulkan, poyonsiz bir to'qayzorga o'xshatish mumkin. Chunki, hayotda hech kim uchun tayyor, silliq yo'l yo'q. Har kim o'z yo'lini o'zi izlab topadi. Bu asnoda ba'zan to'siqlar uchraydi. Ba'zan ravon yuriladi. Ba'zan adashishlar, xatoliklar ichra iztirob chekiladi. Inson o'zini, to'rt qadam narida nima kutayotganini bilmaydi. Bizni ana shu chigalliklardan olib o'tuvchi rahnamolardan biri adabiyot. Ajdodlarimizdan qolgan dono fikrlarga tayanib yashashdir. Ulardan ibrat olib, to'g'ri xulosa chiqarish va amalga tatbiq etish har bir ma'rifatli insonning yashash tarzi bo'lishi lozimdir.

Hazrati Shayx Sa'diy inson hayoti haqida armon bilan mushohada etib, "Qaniydi odamzodga ikki karra umr berilsa. Birinchi marta xatoliklardan, adashishlardan xulosa chiqarib, tajriba o'rganib, ikkinchi marta ko'ngildagiday, armonsiz yashasa", degan ekanlar.

Hazrati Alisher Navoiy ham shunga yaqin fikrni bayon etganlar:

Yorab, eshigingda ul gadomen kim, boshdin oyoqqa xatomen.

Shunday ulkan aql sohiblari, donishmand allomalarimiz ham dunyoning g'alatliklaridan afsus-nadomat chekishgan. Va butun umrlarini yurtdoshlariga to'g'ri yo'l ko'rsatishga bag'ishlashgan. Ularni hushyorlikka, ziyraklikka da'vat etishgan. Ha, bebaho dunyo ana shunday, hech kimga vafo qilmagaydir. Faqat undan aql zakovat bilan foydalanib go'zal hayot kechirish har bir insonning o'ziga bog'liqdir.

Boborahim Mashrab ham ana shunday dono ijodkorlardan. Ammo, uning donoligi, dunyoni anglashi o'ziga xos. She'riyatidagi lirik qahramonning ruhi baland. Olam va odam mohiyati, munosabati haqida gapirganda, ishonch bilan qat'iy xulosalar chiqaradi. U ham dunyoning xatolardan, armonlardan, yolg'onlardan iboratligini biladi. Ammo, bu shoirning lirik qahramonini tushkunlikka tushirmaydi. Chunki, u ana shu xatolar zaminida ishonsa va suyansa bo'ladigan birgina haqiqat borligini ham angelaydi. Bu- Olloh

. Bir xudodin o'zgasi barcha g'alatdur, Mashrabo,

Gul agar bo'lsa qo'lumda, ul tikonni na qilay!

Demak, Xudoga ishonish, unga muhabbatda bo'lish insonni xatolardan asraydi. Hayotiga go'zal mazmun baxsh etadi. Mukammal axloqli, **halol**, pok bo'lishga boshlaydi. Ana shunday bebaho g'oyalar orqali shoir insonlarni go'zal yashashga undaydi. Biron jamiyat yo'qki, unda yolg'on bo'lmas, xiyonat, fitna va fasot bo'lmasa. Bir marta bergan umrdan unumli foydalanib quvonch va shodlik bilan yashash kerak. Mashrab ham shunday ezgu niyatlar tarafdori edi.

Mashrab she'riyatidagi asosiy g'oyalardan biri dunyoning o'tkinchi ekanligi. Hayotda buni anglash juda muhim. Chunki, lahzalik narsalarni g'animat bilish lozim. Mashrab asarlarida shu jahonshumul muammoga katta e'tibor beradi. Insoniyatni g'aflatdan, mudroqlikdan ogoh etadi. Ko'ngillarni tiriklikka, uyg'oqlikka da'vat qiladi. Shoir fikrlari bilan tanishgan har bir o'quvchi o'zida g'ayrat, kuch-quvvat paydo bo'lganini his etadi. Atrofga tiyrakroq nazar tashlay boshlaydi. Quyidagi kabi misralar esa har bir kishiga, men yonimdagi insonni angalayapman-mi? Uning yuragida qanday armonlar qolyapti? Qanday qilsam u o'zini baxtli his qilishi mumkin, degan savollar berishga majbur etadi:

Hasratimga tog`u tuzlar yig`lagay,

Hech kim yo'qtur so'zimni anglagay,

Mashrab yuragida armon uyg'otgan narsa bu insonlardagi loqaydlik, beparvolik. Mashrab "Dili g'amgin", dardchan xaloyiqni xush ko'radi. Dardsizlar uni xasratga giriftor etadi. Uning yuragidagi cho'ng darddan metin toshlardan iborat tog`lar, tilsiz-zabonsiz dala-tuzlar yig`laydi. Ammo, afsuski, insonlar uni anglamaydi, beparvo. Shoir ana shu birgina baytda chuqur ruhiy manzarani chizib bera olgan. Asosiy mazmun — ruhiy, ma'naviy yolg'izlik, hamisha yolg'izlik bilan sukunat yo'ldosh.

Mashrab tasavvuf g'oyalarini targ'ib qiluvchi yetuk mutafakkir, mutasavvuf shoir bo'lishi bilan birga, oddiy insoniy kechinmalar kuychisi sifatida ham namoyon bo'ladi. Uning asarlarida Vatan sog'inchi, ona oldida qarzdorlik tuyg'usidan iztiroblanish kabi kechinmalarning samimiy ifodasini ko'ramiz. Uning kichik janrlarda yozgan asarlarini mohiyatini ham insonning ichki dard alami va

hasrati ifodalaydi. Dardli inson baxtli, chunki u o'zini anglagan, millatdoshi baxtli umr kechirishni istaydi. Biz tadqiq etayotgan shoirning musaddas va musabba'lari ham shunday g'oyalar bilan sug'orilgan.

1.2. Musaddas janrining xususiyatlari

Nazm o'zini jarangdorligi, jozibadorligi bois insonlarga yaxshi kayfiyat bag'ishlaydi. Lirik yunon tilidan olingan bo'lib cholg'u asbobidir, adabiy tur sifatida qadimdan shakllangan bo'lib, o'zining bir qator xususiyatlariga egadir. Lirikaning belgilovchi xususiyati sifatida uning tuyg'u-kechinmalarni tasvirlashi olinadi. Ya'ni, epos va dramadan farqliroq, lirika voqelikni tasvirlamaydi, uning uchun voqelik lirik qahramon ruhiy kechinmalarining asosi, ularga turtki beradigan omil sifatidagina ahamiyatlidir. Shu bois ham lirik asarda voqelik lirik qahramon qalbi orqali ifodalanadi, yanayam aniqrog'i, lirikada kechinmani tasvirlash uchun yetarli miqdordagi voqelik "parchalari", detallargina olinadi.

Lirikaning asosiy obrazi - lirik qahramon (ba'zan u lirik sub'yekt deb ham yuritiladi). Ko'pincha lirik qahramon deganda muallif tushuniladiki, bu har doim ham to'g'ri bo'lavermaydi. Zero, shoir o'zining kechinmalarini tasvirlashi ham, o'zganing ruhiyatiga kirgan holda o'sha "o'zga shaxs" kechinmalarini tasvirlashi ham mumkin bo'ladi. Bu o'rinda yana bir muhim masala shuki, she'rda hatto shoir o'z kechinmalarini tasvirlagan holda ham lirik qahramon bilan real shoir orasiga tenglik alomati qo'yib bo'lmaydi. Chunki, inson qalbida mavjud bo'lishi mumkin bo'lgan barcha qalblar imkoniyat tarzida mavjuddir, shunga ko'ra va ikkinchidan, shoir o'zganing holatiga kirishi, ma'lum hayotiy holatdagi istalgan insonning kechinmasini his qilishi ham mumkin. Boborahim Mashrab ham yuqorida ta'kidlagandek, insonlarning qalb kechinmalarini yuksak mahorat bilan ifodalagan. Ya'ni dardmandlarni dardini his qilib, ularga ma'naviy oziqa berish maqsadida jamiyatdagi illatlardan qanday qutilish lozim, o'z she'riyatida yuksak badiiy mahorat bilan ifodalagan.

Biz tadqiq etayotgan musaddas janri va uning lug'aviy ma'nosi qanday? Musaddas arab tilida "oltilik" degan ma'noni ifodalaydi, adabiyotshunoslikda esa har biri olti misrali bir necha banddan tashkil topgan she'riy shakl shu nom bilan ataladi. Bu xil asarlarning birinchi bandidagi barcha misralar qofiyalanadi. Keyingi bandlarning 4 yoki 5 misrasi mustaqil qofiyalanib, oltinchi yoki beshinchi, oltinchi

misralar birinchi band bilan qofiyadosh bo'lib keladi. Masalan Boborahim Mashrab qalamiga mansub musaddasning qofiyalanishini avvalgi uch band misolida kuzataylik:

Ne g'urbatlarni chektim charxi bebunyod dastingdin,
Mudom motamda qoldim, bo'lmadim dilshod dastingdin,
Tamomi xonumonim bo'ldi chun barbod dastingdin,
Hama obod bo'ldi, bo'lmadim obod dastingdin,
Ki, man har qayga borsam, dod etarman, dod dastingdin.

Dilimning quvvati, ruhi ravonimdin ayirdilar,
Ko'zimning oqi yanglig` merhibonimdin ayirdilar,
Azizim, hamdamim, oromijonimdin ayirdilar,
Jahon gulzorida ul gulistonimdin ayirdilar,
Ki, man har qayga borsam, dod etarman, dod dastingdin.

Chamanda bulbuli sho'ridadirman, oshyonim yo'q,
Misoli chug`zdek vayronalarda ham makonim yo'q,
Vafolig` yor deb chiqti, jasadda balki jonim yo'q,
Azizimdin judo bo'ldim, boshimda soyabonim yo'q,
Hama obod bo'ldi, bo'lmadim obod dastingdin,
Ki, man har qayga borsam, dod etarman, dod dastingdin.

[32:382.516-b]

Ko'rinib turibdiki, birinchi band *a a a a a a* tarzida qofiyalangan. Keyingi bandlarning to'rttadan misrasi mustaqil qofiyalanib, bandlar oxiridagi aynan takrorlayotgan-mutakkarir ikki misra birinchi band bilan qofiyadosh.

Olib borilgan tadqiqotlardan ayonlashdiki, shoir Boborahim Mashrab adabiy merosini o'rganib kitob shakliga keltirish uchun adabiyotshunoslarimiz yo mashrabshunoslar ko'p tadqiqotlar olib borganlar. Bugungi kunda bu sohada ko'proq mashaqqat chekan birinchi kitob "Mehribonim qaydasan" (1990 yil) va ikkinchi

kitob “Devon” tarzida (2006 yil) Jaloliddin Yusupov tomonidan nashr qilindi. O’rganish jarayonida ma’lum bo’ldiki, birinchi nashr (1990)da shoirning bitta “dastingdin” degan radifli musaddasi keltirgan bo’lsa keyingi nashrda (2006) yettita musaddas borligi aniqlab shoir devoniga kiritgan. Birinchi musaddasi “dastingdin” radifi bilan yozilgan bo’lib, besh bandan iboratdir. Mazkur musaddasning mazmunidan kelib chiqib aytish mumkin shoir o’z ahvolini badiiy tarzda ifodalagan. Yo lirik janrning mohiyatidan kelib chiqqan holda adib o’z zamondoshini hayotidan noroziligi, mehr sadoqatga muhtojligi ifodasini topgan, desak bo’ladi. Ikkinchi musaddas “keldim” radifli bo’lib o’n ikki bandan iboratdir. Mazkur musaddasda lirik qahramon dunyoga nimaga kelganligini, kimni hurmati uchun yorug` olamga kelganligini badiiy ifodalaydi. Birma-bir o’z maqsad muddaosini bayon qilgan bo’lsa, keyingi musaddas ham “keldim” radifi bilan yozilgan bo’lib, bunga shoirning o’zi piriga murojaat etgani ma’lum bo’ladi. Bilamsizki sharq adabiyotida pir katta obro’ e’tiborga ega. Ularning yashash tarzlari poklikka asoslangan. Shu bois Boborahim Mashrabning lirik qahramoni pirning darborida “fayzi rahmat” borligi uchun kelganligini aytadi. Bundan tashqari bu dunyoda bir qancha Payg`ambarlar, avliyolar, buyuk mutafakkirlar kelib ketganligi lirik qahramon tomonidan eslatadi. Sizning pok domoningizni ushlab, Payg`ambarimiz ummatim deganlari uchun keldim deydi.

Boshqa musaddasi:

Ey pari, yuz ko’rsatib yuz noz ila boqqanmusan?

Xirmani umrimga ishqing o’tini yoqqanmusan?

[32:385.522-b]

Bayti bilan boshlagan bo’lib, o’n bir bayt yigirma ikki misradan iboratdir. Parvardigor azaldan insonni juft qilib yaratgan. Bu Odam Atto va Momo Havodir. Ya’ni erkak va ayoldir. Oshiq va ma’shuqdir. Ular bir-biridan uzoqlashmasin deb mehr muhabbat rishtasini judda qattiq bog`lagan. Shu bois kichik janrning lirik qahramoni ma’shuqadir. Mumtoz adabiyotimizning barcha namoyandalari ularga qaratib, o’z muhabbatlarini izhor etganlar. Xususan, ayol ishq har qanday erkakni lol qoldirgan. Adiblarimizni nazmi asarlarini mutolaa qilar ekanmiz, mahbubalariga

qanchadan qancha go'zal g'azallar yaratganligini guvohi bo'lamiz. Ikkinchidan Sharq adabiyoti ichida g'azal janri mavjudki, uning lug'aviy ma'nosi "ayolarga ishq izhor qilish, yo xushomad qilish ma'nosiga ega" ekanligini barchamiz yaxshi bilamiz. Boborahim Mashrabning "Men kimga aytay do'stlarim devona qildi ishq mani" degan misra bilan boshlaydigan g'azali ham biz so'zlayotgan mavzuga bag'ishlangan. Yuqorida keltirgan musaddasning birinchi baytidan ma'lum bo'ladiki, lirik oshiq o'z ma'shuqasiga "Ey pari, yuz ko'rsatib yuz noz ila boqqanmusan?" tarzida murojaat qilgan. Sharq adabiyotining buyukligi ham, adiblarning mahorati ham ko'proq ana shunday go'zal tasvirlar orqali ayon bo'ladi.

Shoirning navbatdagi musaddasi Ollohga va uning Rasuli Muhammad (s.a.v)ga murojaat bo'lib, olti banddan iborat. Adibning lirik qahramonini tiliga har doim "Lo iloha ilalloh" bo'lib, diliga Parvardigorga hamd ekanligini, bu uchun uni qo'lini doim Payg'ambarimiz(s.a.v) tutushlarini ta'kidlaydi.

Hayot, yashash xursandchilik va g'amu tashvishdan iborat. Bandalar umrlari davomida hayot qiyinchiliklariga ko'p yuzma-yuz bo'lganda, o'zlariga bir dildosh, xolis hamsuhbat topmaganda, albatta Parvardigori olamga murojaat qiladilar. Shoh shoirning keyingi musaddasining lirik qahramoni azaldan hastavu baxti qaro ekanligini, yer yuzida unday kulfatu anduhdan qaddi duto kishi bo'lmaganligini, bir tushkun holatda ifodalaydi. Agar mazkur musaddasni bandma-band o'rgansangiz hatto lirik qahramon "jahonda unday benavo" yo "dardi dilini hech kimga aytmasdan hasratda" qolganligi, ahvoli shuncha tang bo'lganki, "diydasi yig'lash bilan qonga aylanganligini" tasvirlaydi. Mazkur musaddas sakkiz bandan qirq sakkiz misradan iborat.

Bilamizki mumtoz adabiyot namoyandalarining sevimli va ibratli lirik qahramonlari Payg'ambarlar, chor yori bosafolar, avliyolar va buyuk mutafakkirlar bo'lgan. Adibning quyidagi musaddasini mazmuni shundan dalolat beradi. Shoirning lirik qahramoni hayotdan shuncha alamzadaki, "Mustafodan va Chor yori bosafodan boshqa yori yo'q", bundan tashqari Payg'ambarimizga "meni ummat degil, o'z holimga tashlab qo'yma deb" iltijo qiladi. Mazkur musaddas o'n olti bayt,

to'qson olti misradan iboratdir. Boborhim Mashrabning musaddaslari ichida hajm jihatdan eng kattasi shudir.

Xulosa, Boborahim Mashrab g'azal, muxammas va katta hajmli asarlar yaratish bilan birga musaddas janrida ham ijod qilganki, ularning soni yettita bo'lib, jami 67 band, 201 bayt, 402 misradan iborat bo'lib, yuqorida ko'rganimizdek turli mavzularni qamrab olgan. Adib goh Ollohga murojaat qilsa, goho Payg'ambarimizdan madad so'raydi va ba'zan ma'shuqaga ishq izhor qiladi. Darhaqiqat Boborahim Mashrabning adabiy merosi g'oya va mazmun jihatdan nihoyat boy. Inson bir martagina yashaydi, shu uchun u ruhan tetik, irodasi mustahkam, qalbi hasad kina va adovatdan pok bo'lishi lozim. Bu uchun shoirimiz aytgandek qalbga ishq olovi bo'lishi darkor. Chunki ishq poklanish vositasidir. U shunday Ilohiy mo'jizaki o'z egasini murodiga yetkazib, ikki dunyo baxtu saodatiga muyassar qiladi. Adib tomonidan ijod qilgan musaddaslarning asosiy mavzusini ishq, sevgi, sadoqat, muhabbat kabi go'zal insoniy tuyg'ular tarranum etilgan. Bularni to'g'ri o'rganib, kerakli xulosalar chiqarib, shoir tomonidan bayon etgan go'zal g'oyalarni amalga tatbiq etsak, alloma oldidagi va insonlar oldidagi qarzlirimizni ado qilgan bo'lamiz. Ijodkor tomonidan yaratilgan musaddaslarning g'oyaviy-badiiy jihatdan chuqur o'rganish ishimizning samaradorligini oshiradi deb umid qilamiz.

1.3. Shoir musaddaslarining g`oyaviy-badiiy tahlili

Boborahim Mashrabning adabiy merosidan biri musaddasdir. Shoir o`z musaddaslariga jamiyatning turli mavzularni aks ettirishga muvaffaq bo`lganligini yuqorida guvohi bo`ldik. Takidlaganimizdek, adabiyotshunos, Jaloliddin Yusupov shoirning qo`lyozma devonlarini o`rganib “Devon” shakliga keltirib chop ettirgan. Mazkur devonda adibning g`azallari, mustazodlari, murabba`lari, muxammaslari, musaddaslari, musabba`lari, musammani, masnaviysi, fardlar va to`rtliklar joy olgan. Biz tadqiq etayotgan musaddas janrining lug`aviy ma`nosi, soni va bandu misralarining sanog`i haqida fikr mulohazamizni bayon etdik. Biz shulardan kelib chiqib ishning bu qismida adibning musaddaslarining g`oyaviy-badiiy jihatdan tahlil qilishni maqsad qildik.

Boborahim Mashrabning hayot faoliyatidan yaxshi bilamizki, shoir hali maktabga borgan ilk kunlaridayoq, ilohiy ilmni o`zlashtirgan. Hatto ustoz bilan bahsu munozarasi shundan dalolat beradi. Shuningdek adibning hayoti behad mashaqqatli va tashvishli o`tgan. U agar jisman yer yuzida yurgan bo`lsa ham, ruhan falakka sig`magan. Ishq muhtallosiga giriftor bo`lib, ishq dardi bilan birga, xalq g`ami bilan yashadi. O`z zamonsining adolatsizligiga toqat qilmasdan, oh faryod chekdi. Bir manzilga muqum yasha olmadi, mutafakkir butun O`rta Osiyo va Sharq mamlakatlarini oyoq yalong`och holda kezib chiqdi. Qaysi yurtga bormasin, xalq moddiy va ma`naviy jihatdan qiynalayotganligini guvohi bo`ldi. Natijada shoir ko`rgan va boshidan kechirgan qiyinchiliklarni dard, hasrat, tashvish sifatida o`z asarlarida badiiy ifodaladi. Kimlarnidir shu orqali adolat va diyonatga chaqirdi. Insof bilan yashash barchaga baxt keltirishni uqtirdi. Shu bois so`fi shoir bir daqiqa xam darddan yiroqlashmadi. Qalbiga dard bo`lgan kimsa ko`proq xalq g`ami bilan yashaydi. Chunki dard odamni boshqalar ahvolidan xabardor bo`lishni o`rgatadi. Zamondoshi baxtli umr kechirishni istaydi. Quyidagi musaddasning birinchi bandida:

Ne g`urbatlarni chektim charxi bebunyod dastingdin,
Mudom motamda qoldim, bo`lmadim dilshod dastingdin,

Tamomi xonumonim bo'ldi chun barbod dastingdin,
Hama obod bo'ldi, bo'lmadim obod dastingdin,
Ki, man har qayga borsam, dod etarman, dod dastingdin.

Agar insoniyat tarixiga nazar salsak, biron-bir adib yo'qki, "charx"ni ya'ni aylanib turgan hayot tashvishlaridan xalos bo'lib, go'zal umr kechirgan bo'lsa. Yo umrning tashvishidan yiroq yashagan biron shoir va ijod ahli topilmasa kerak. Bu dunyoda g'amu tashvishsiz odamni o'zi yo'q. Ikkinchi misrada adib tazod san'atidan mohirona foydalanib hayot tashvishlarini "motam" va "dilshod" so'zlari orqali bayon etgan. Yo keyingi misrada "hama obod" men esa biron marta ham xursand bo'lmadimni chiroyli tarzda keltirgan, birikmani muqobili sifatida "bo'lmadim obod dastingdan" bilan ifodalaydi. Bundan ta'sirlangan kitobxon shoirning lirik qahramoni tashvishli hayot kelganligini anglab oladi. Adibning qayga borsa ham falak qo'lidan faryod chekkanligi oxirgi misraga o'z ifodasini topgan. Shoir yashagan davrda zulm va shafqatsizlik hadan oshgan. Davlat sardorlari ayshu ishratga berib, xalqni yashashiga e'tibor bermagan. Bir necha yilik soliqlar oldindan olingan. Millat parokandaligi, yurt vayrongarchiligi kun sayin avj olgan. Natijada shu asrda kelib qalandarlik, darveshlik rivojlangan. Yuqorida ta'kidlaganimizdek barcha insonlar Oллоhdan madad so'ragan va unga sig'ingan.

Dilimning quvvati, ruhi ravonimdin ayirdilar,
Ko'zimning oqi yanglig` mehribonimdin ayirdilar,
Azizim, hamdamim, oromijonimdin ayirdilar,
Jahon gulzorida ul gulistonimdin ayirdilar,
Hamma obod bo'ldi, bo'lmadim obod dastingdan,
Ki, man har qayga borsam, dod etarman, dod dastingdin.

Bilamizki har bir insonning hayoti chog`ida o'ziga yaqin kishilari bo'ladi onasi, otasi, opasi, singlisi va yaxshi ko'rgan yoridir. Ular bilan suhbat qilamiz, dardimizni aytamiz, tashvishlarini eshitamiz. Zarurat bo'lsa imkon darajasida ularga moddiy va ma'naviy quvvat bo'lamiz. Ahlik va inoqlikka hayot kechiramiz. Tasavvur qiling

yaqin kishidan judolik qancha odamga salbiy ta'sir o'tkazadi. Ruhan ezib, qalbimizga qora dog` paydo bo'ladi. Shuning uchun ularni borligidan qalbimiz quvvat olsa, ruhimiz tetiklashadi. Mehribonlarimiz borki ular ko'zimizning qora va oqiga o'xshaydilar. Shoir o'xshatish san'ati orqali insonlarning bir-biriga yaqinlarini, qadrdonlarini "ko'zimning oqi" tarzida ifodalaydi. "Azizim, xamdanim, oromijonim" tavsif san'ati bo'lib, adib fikrini ta'sirchanligini ta'minlash uchun yuksak mahorat bilan maqsadini ifodalaydi. Hayot "gulzorga" biz "gulga" o'xshaymiz bu misrada ham shoh shoir badiiy san'atlarni qo'llash orqali maqsad va muddaosini bayon etgan. Shoir nima uchun oxirgi misrada faryod chekadi? Chunki uni butun bori yo'g'idan mahrum qildilar, xususan unga yaqin va aziz bo'lgan insonlardan uzoqlashtirdilar shu bois u yig'laydi, dardini to'kib tashlaydi.

Chamanda bulbuli sho'ridadirman, oshyonim yo'q,
Misoli chug`zdek vayronalarda ham makonim yo'q,
Vafolig` yor deb chiqti, jasadda balki jonim yo'q,
Azizimdin judo bo'ldim, boshimda soyabonim yo'q,

Hama obod bo'ldi, bo'lmadim obod dastingdin,

Ki, man har qayga borsam, dod etarman, dod dastingdin.

Taqdiri azal kimgadir bebaho baxtu saodat berib, boshini silasi, kimgadir g`amu anduh berib imtihon qiladi. Boborahim Mashrab musaddasning uchinchi bandida o'z lirik qahramonini hayotini badiiy tasvirlar ekan, qahramonini "bulbulga" o'xshatadi. U bulbulning ahvoli shuncha achinarliki, hayoti butun jismini dard egalagan va shu bois u murakkab kechadi, yashashga "oshiyoni" uyi yo'q. Bilamiz qushlardan biri "chug`z"dir vayrongarchilik joylarda umr kechiradi. Ammo shoirning "men" lirik qahramonida, shunday vayronalarda yashash uchun imkoni ham, joyi ham yo'q. Lirik qahramoning ahvoli shuncha og'ir, hatto vafoli yorini oldiga boraman desa, tanasiga jon qolmagan. Bu shoirona ifoda bo'lib, kitobxonni fikrlashga undaydi. Uni dardiga malham bo'lish bilan, unga ta'lim beradi. Chunki birovni hayoti boshqalar uchun maktab vazifasini o'tadi. Mashrab kelajak avlodga o'z zamonasini iztiroblarini ana shunday samimiy yo'llar orqali yetkazgan, desak bo'ladi. Albatta shoirning mahorati shundaki, she'riy san'atlar orqali maqsadini

ta'sirchanligini ta'minlaydi, lirik qahramon ahvolini kitobxon tushinishi uchun, mubolag'a san'atini qo'llaydi. Odam qachonki o'zida juda ham yaqin bo'lgan insondan, akasi, onasi, otasidan judo bo'lsa "soyabonim ketdi" deb faryod chekadi. Keyingi to'rtinchi misrada ham shoir ana shu lirik qahramonning ruhiy kechinmalarini go'zal tarzda ifodalaydi. Keyin musaddasning birinchi va ikkinchi bandiga keltirgan, baytlani yana keltirib falak qo'lidan faryod chekadi. Shoir bunday holatlarni bayon ettar ekan, agar sizga Olloh yo taqdiri azal chiroyli yashashni nasib qilgan bo'lsa, faqat shukrona qilib, bir-biringizni qadrlab yashang deb uqtiradi. Chunki birovning mashaqqatli hayoti boshqalar uchun maktab vazifasini o'tadi, yo birovni go'zal xayoti boshqalarga namuna bo'lishi lozim.

Manidek g`amda qolg`on, dilparishon o'lmasun hech kim,

Ko'zi chun termulub yo'llarda hayron o'lmasun hech kim,

Bahori gulshani umri zimmiston o'lmasun hech kim,

Bu dunyo diydasig`a torikiston o'lmasun hech kim,

Hama obod bo'ldi, bo'lmadim obod dastingdin,

Ki, man har qayga borsam, dod etarman dod dastingdin,.

Avvalgi bandda lirik qahramon yashashi uchun uyi bo'lmasa, keyingi bandda "g`amda qolg`an", "dilparishon" halovati yo'q kimsaning holati badiiy ifodasini topgan. Albatta o'z yaqinlaridan judo bo'lgan kishi, boshqalardan mehr kutib yashaydi. Qachon uni uyiga birov hol ahvol so'rab kelishini istab, yo'llarga termulub qaraydi. O'lgan odam o'ldi, ammo insonlar qolganlarni ko'nglini ko'tarish uchun ta'ziyaxonaga boradilar. Ko'ngil Ollohnining nazargohidir. Parvardigori olam seni tashqi qiyofanga qaramaydi, balki qalbing va pok niyatinga qarab senga nazar soladi. Buyuk mutafakkir zamonida ham ayni kunlarda ham odamlar mehr istab yashaydilar. Keyingi misrada adib o'z fikrini badiiy ifodalash maqsadida yana, tazod san'atiga murojaat qiladi. "Bahor" va "zimiston" ya'ni kish. Birinchidan bahor yasharish go'zalik faslidir, ko'p adiblarimiz bahor faslidan chiroyli hayot ramzini izlaydilar. Insonning yoshligi, xursandchiligi va go'zal yashashi kelinchaklar fasli bahorga o'xshatiladi. Ammo ayrim adiblarimiz "zimiston" qish faslini bahorga qarshi qo'yib, odamning g`am tashvishi bilan bog'laydilar. Yuqoridagi misrada Boborahim

Mashrab shunday g`oya va maqsadni ko`zlab bu so`zlardan foydalangan. Bu dunyoning g`amu anduxlariga va tashvishlariga botib qolmasin, ana shu maqsadi adib o`ziga xos uslubda “dunyo diydasi” tarzida ifodalangan, bu esa ijodkorning yuksak shoirlik mahoratidan darak beradi. Bulardan tashqari adibning yana bir yutug`i “torikiston”dirki, qorong`ulik ma`nosiga kelgan. Bu so`z ham barcha mumtoz shoirlarimiz ijodiga mavjud emas, bu so`zning qo`llash bizningcha faqat Boborahim Mashrab ijodiga ko`zga tashlanadi:

Umidim bor, yetkurgaymusan xurshidi matlabimni,
Saodat burjidin ul sham`i iqboling`a kavkabni,
Ko`targaysan boshimdin ikki olamda qaro shabni,
Yetushturg`aymukin himmat yo`lig`a xasta Mashrabni,
Hama obod bo`ldi, bo`lmadim obod dastingdin,
Ki, man har qayga borsam, dod etarman, dod dastingdin.

Insonning eng achchinarli va ruhiy tushkunligi uning umidsizlikka tushib qolgan vaqtdir. Umidsizlik odam uchun eng og`ir zarba va hayotning tamom bo`lishidir. Shu bois odamning boshiga qancha qiynchilik tushmasin, u aslo noumid bo`lmasligi kerak. Umid odamizodga kuch, quvvat, iroda va e`tiqod bag`ishlab oldinga qarab intilishni o`rgatadi. Yashashga undaydi, kelajakka ezgu niyatlar bilan qarashga chaqiradi. Boborahim Mashrab musaddasning oxirgi bandida garchand yaqinlaridan judo bo`lgan bo`lsa ham, yashashi uchun uyi bo`lmasa ham, uni kimdir so`rab kelishini istagan bo`lsa ham, g`amga botib, umidsizlikka tushgani yo`q. Balki kelajakka umid bilan qaraydi, maqsadlariga etish yo`lini izlaydi, saodatli umr kechirishni istab, g`amu tashvishni orqasidan quvonch shodlik kelishini bilgan holda, yurkdan his qilib, oldiga quygan maqsadlardan qaytmaydi. Chunki har qanday jamiyatda insonlar ozgina qiyinchilikka yuzlanib qolsa, umidsizlikka tushib, nochor ahvolga qoladilar. Bunday kimsalar adib yashagan davrda ham, hozirgi tinch va go`zal hayotimizga ham uchraydi. Shoh shoir ana shunday ta`sirchan misra va baytlari orqali, o`quvchini yashashga undaydi. Shuningdek har qanday to`siqlarni bosib o`tish uchun, mustahkam iroda topishni targ`ib va tashviq qiladi. Darhaqiqat kitobxon

yuqoridagi she'riy parchani o'qar ekan, qalbiga nur paydo bo'lib, yashashga yana ishtiyoqi oshadi.

Besh bandan iborat musaddasda Boborhim Mashrabning lirik qahramoni hayotda ko'p nochorlik va og'ir ahvolda tushgan bo'lsa, aslo noumidlikka tushkunlikka tushib qolgani yo'q. Umid bilan umr kechiradi va kelajakka umid bilan qaraydi. Sevimli adibimiz yashagan zamonda odam qadri yo'q edi, lekin adibning lirik qahramoni umidsizlikka tushmadi. Bugunchi biz mustaqillik sharofati bilan shoirning hayotini, asarlarini, ma'naviy merosini yangicha ruhda o'rganib saboq oliyapmiz. Ya'ni shoirning har bir ta'limoti, misralari biz uchun katta maktabxona vazifasini o'tadi. Biz ularni o'rganib, o'zlashtirib, bugungi yoshlarni barkamol shaxs qilib tarbiyalashimiz kerak. Aks holda taqdir ham, kelajak avlod ham bizni aslo kechirmaydi.

Ishq, muhabbat, sevgi sadoqat insonlarni qalbini rom etgan buyuk ilohi tuyg'udir. Qalb Ollohning nazargohi, unga dard bo'lishi kerak. Go'zal dard, shirin dard, yor dardi, Vatan dardi, yurt dardi, millat dardi, farzandlar dardi va jamiyat dardi bo'lishi lozim. Shundagina inson o'z odamiylik qiyofasin yuqotmaydi. O'zini go'zal fazilatlar bilan bezaydi. Bunday ezgu amallar sohibi aslo o'z manfaatini o'ylamaydi, balki boshqalarni manfaatini birinchi qo'yadi. Shundagina odam boshqalarni qadrlaydi, o'zini asraydi, halol mehnat qilib, halol luqma topib, saodatli umr kechiradi. Uning qalbi barcha ifloslikdan pok bo'ladi. Chunki ishq va dard bor ko'ngilda uni oldiga yovuzlik kirolmaydi. Ezgulik rivojlanib egasini dilida huzur halovat bag'ishlaydi. Natijada oshiqalar ma'shuqalariga qarab shirin so'z aytadilar, ularni maqtab qalblariga mehr urug'i qadaydilar. Qanday yaxshi, sevgan nigoringiz bilan yurakdan suxbat qilsangiz. Uning vasliga yetish maqsadida qalbiga "ishq o'tinini yoqsangiz", hajri bilan yashab uni aytganidan chiqmasdan, boshqalarga boqmasangiz, shoir tili bilan aytsak: "O'zga yuzga boqma deb, ko'zumga mix qoqqanmusan?"ga rioya qilsangiz qanday omad, qanday buyuk baxt. Boborahim Mashrabning ma'shuqaga bag'ishlangan musaddasi, kitobxonni ana shunday go'zallik sari yetaklaydi:

Ey pari, yuz ko'rsatib yuz noz ila boqqanmusan?
Xirmani umrimga ishqing o'tini yoqqanmusan?
Mehridek husnunga zulfing abrini yopqanmusan?
O'zga yuzga boqma deb, ko'zumga mix qoqqanmusan?
Qatl eturg'a qasd etib bag'ring'a tig' chopqanmusan?
Aylanib har yona g'amzang o'qini otqanmusan?

[32: 385.522-b]

Yuqorida keltirgan musaddasdagi yuksak mahoratga qarang, o'ziga xos tarzga, boshqa ijodkordan farqli tarzda yangi o'xshatishlar "ko'zimga mix qoqqanmusan" birikmasini diqqat bilan o'rganing, shoirning iste'dodiga tan berishdan boshqa choramiz yo'q. Mix tik turadigan, qayrilishga iloji yo'q, yana bir joyga turadi, harakatdan mahrum, adibning oshiqi beqarori ma'shuqani behad dono va ziyrakligini yuksak did bilan bayon qilishga muyassar bo'lgan. Chunki har qanday zamonda va makonda ma'shuqalar sadoqatli bo'lmagan. Sevimli adibimiz o'xshashi yo'q o'xshatish san'ati bilan o'quvchini diqqatini o'ziga jalb qilishi ham, katta mahoratdan dalolat beradi. Yo oshiqning bunday misli yo'q savollari, keyingi misralarga o'z ifodasini topgan. Shuning uchun Mashrabning ijodiy, nafaqat adabiyotshunoslarning, balki oddiy va samimiy xalqning qalbini ham egalagan. Sharq mumtoz adabiyotning buyukligi ham ana shunday chiroyli, maftunkor o'xshatishlarning yuksak mahorat bilan ifodalaganidadir. Mumtoz adabiyotimizning ko'p ijodkorlari, betakror she'riy san'atlarni kashf ettib, adabiyotimizni yana boyitib qadrini ko'tardilar. Shu bois buyuk allomalar yaratgan ma'naviy meros nafaqat o'z yurtimizda, balki jahon miqyosida o'z o'rnini topdi. Shoh shoir Boborahim Mashrabning buyuk iste'dodi hayotlik chog'idayoq faqat ahli adab qalbini emas, balki oddiy insonlarning ko'ngliga ham yo'l topa olgan edi. Bugun mustaqillik sharofati bois mumtoz adabiyotimiz yangicha ruhiyat ila jahon ahlini lol qoldirayotgani birontamizga sir emas.

II. BOB. Boborahim Mashrab musabba'larining g'oyaviy-badiiy tahlili.

2.1.O'zbek adabiyotida musabba' janrining o'rni

Mustaqillik sharofati bois o'zlikni anglash, o'tmish mutafakkirlarimizning ma'naviy merosini o'rganib to'g'ri baxo berish baxtiga muyassar bo'ldik. Abdurauf Fitrat mashrabshunoslik sohasida ilk tadqiqotlar olib borgan adabiyotshunoslarimizdan biri hisoblanadi. Fitratning "Mashrab" nomli salmoqli tadqiqoti uch qismdan iborat. Birinchi qismda Mashrab haqida ma'lumot bergan manbalar, shoir tug'ilgan sana va shahar, uning qaysi shaharlarda bo'lganligi va vafoti haqidagi ma'lumotlarga o'rin berilgan. Ikkinchi qismda esa Mashrabning qalandarligiga urg'u berib, manbalar asosida qalandarlikning shakllanishi va xususiyatlarini ochib berilgan. Tadqiqotning uchinchi qismida Mashrabning asarlarini tahlil qilgan. Fitrat Boborahim Mashrab adabiy merosini o'rganish natijasida shoir she'rlarining tili haqida shunday yozadi: "G'arb turkchasini ham Mashrab tilida ko'zga ko'rinarlik ta'siri bor:

Bu g'ussadin o'lsam, boshima ohim alamdir,
Mashrab o'zingni solma necha turli jafog'a,
Bas, jandani kiydim, o'zimi darbadar ettim,
Arzi dilima etmak uchun zor solibman,
Hay-hay na go'zalsan, na ajoyib, na qiyomat⁷.

[32:390.533-b]

tarzida keltirgan xalos, lekin biron munosabat bildirmagan. Shuningdek, keltirgan she'riy misralar qaysi janrga xosligini ham ta'kidlamagan. Biz imkoniyatimiz darajasida mazkur misralarni Boborahim Mashrabning mustaqillik sharofati bilan, adabiyotshunos Jaloliddin Yusupov tomonidan tartib berilgan "Devon"da keltirilgan she'rlar bilan qiyoslab chiqdik. Natijada ma'lum bo'ldiki, yuqorida keltirilgan beshlikning oxirgi misrasini olsak, shoirning quyidagi musabba' janriga yozgan she'rning oltinchi misrasiga mos keladi:

⁷ Абдурауф Фитрат. Танланган асар. 2 жилд. Илмий асарлар. Тошкент. "Маънавият", 2000.101-бет.

Ey, g'unchai navxezi gulistoni malohat,
Ey, toza niholi chamanoroyi nazokat,
Zulfi siyahing fitnayu, xolu xating-ofat,
Yo'lingda tegar boshima ming sangi malomat,
Maqbulsan, ey dilbari xush lahja bag'oyat,
Vah-vah, na go'zalsen, na ajoyib, na qiyomat,
Hay-hay, na sanam qilsa jafonima rohat.

[32:390.533-b]

Keltirgan band etti misradan iborat bo'lib, musabba' janriga to'g'ri keladi. Ammo Abdurauf Fitrat keltirgan band, besh misradan iborat, shu bilan birga qofiyalanishi ham mos kelmaydi. Diqqat bilan misralarni o'qisangiz hatto mazmun jixhatdan ham sayozdir. Xullas biz yuqoridagilarni inobatga olib Boborahim Mashrabning musabba' janrida yozgan ma'naviy merosini o'rganib g'oyaviy va badiiy jihatdan imkoniyat darajasida tadqiq ettishni maqsad qildik.

Sharq mumtoz adabiyotida lirik janrlar judda ko'p, biz o'rganayotgan musabba' janrining o'zbek adabiyotida o'z o'rnini bor. Boborahim Mashrab mazkur janrda ham salmoqli ijodi qilgan adiblardan biridir. Tadqiqotimiz davomida shoir ijodida musabba' janrining tutgan o'rnini xususida ayrim fikr-muloxazamizni bayon qilishni istadik. Avvalo mustaqillik sharofati bilan adabiyotshunoslarimiz olib borgan tadqiqotlarning xulosasiga ko'ra, shoirimizdan bizga bor yo'g'i ikkita musabba' meros bo'lib qolgan. Birinchi musabba' besh bandan va ikkinchi musabba' to'qqiz banddir. Jami o'n to'rt band, to'qson sakkiz misra, qirq to'qqiz baytdan iborat. Biz mazkur janrning xususiyatlarini o'rganish uchun Boborahim Mashrab va boshqa mumtoz adabiyotimiz vakillari tomonida ijod qilgan mazkur janrni qiyoslaganimizda, biz tadqiq etayotgan adibning musabba'lari uning oldiga qo'yilgan talablarga to'liq javob beradi. Hajm, shakl va misra'lar jihatdan ham mos keladi.

Musabba'ning lug'aviy ma'nosi xususida nazariyotchilar nima deydi? Mazkur janr arab tilida "ettilik" ma'nosini ifodalovchi ushbu atama har bandi yetti misradan tashkil topgan lirik she'r shakli nomini bildiradi. Bunday asarlarda

birinchi banddagi barcha misralar qofiyalanib, keyingi bandlarining besh misrasi mustaqil qofiyaga ega bo'ladi, bandlar oxiridagi 2 misra birinchi band bilan qofiyadosh bo'lib keladi. Boshqacha qilib aytganda, musabba'lar *a a a a a a a, b b b b a a, v v v v v a a* va hokazo tarzida qofiyalanadi. Bandlar oxiridagi 2 misra faqat qofiyadosh bo'lsa, muzdavij musabba', aynan takrorlansa mutakarrir musabba' sanaladi.

She'riyatimizda musabba' shaklidagi lirik she'rlar juda kam yaratilgan. Adabiyotshunoslarning ta'kidlaricha uning dastlabki namunasi Boborahim Mashrab ijodida uchratgan. Shoir o'zining yuksak ijodi bilan mazkur janrda xam g'oyat yoqimli, musiqabop asarlar yaratish mumkinligini isbotlab bergan. Mana o'sha mutakarrir musabba'ning birinchi va ikkinchi bandlari:

Ey, g'unchai navxezi gulistoni malohat,
Ey, toza niholi chamanoroyi nazokat,
Zulfi siyahing fitnayu, xolu xating-ofat,
Yo'lingda tegar boshima ming sangi malomat,
Maqbulsan, ey dilbari xush lahja bag'oyat,
Vah-vah, na go'zalsen, na ajoyib, na qiyomat,
Hay-hay, na sanam qilsa jafo jonima rohat.

Ul xoliqi kunji labi jonona tushubdur,
Jon olmoq uchun ko'zlari mastona tushubdur,
Hindu bachae mulki Sulaymona tushubdur,
Ul chohi zanaxdoniga bir dona tushubdur,
Chun Yusufi Kan'onki bu zindona tushubdur,
Vah-vah, na go'zalsen, na ajoyib, na qiyomat,
Hay-hay, na sanam qilsa jafo jonima rohat.

[32:390.533-b]

Keltirgan ikki bandan ma'lum bo'liyaptiki, shoirning musabba'si ishqiy mavzuda bo'lib, ma'shuqani go'zaligini, qadu qomatini, nozu karashmasini adib nihoyat yuksak mahorat bilan ifodalagan. Mazkur musabba' yuqorida

ta'kidlaganimizdek to'qqiz band, oltmish uch misra' va o'ttiz bir baytdan iborat. Har bandini oxirida **“Vah-vah, na go'zalsen, na ajoyib, na qiyomat, Hay-hay, na sanam qilsa jaf o jonima rohat”** bayti takror kelgan.

Shoh Mashrabdan qolgan ikkinchi musabba' besh bandan, o'ttiz besh misradan va o'n etti baytdan iboratdir. Musabba' quyidagi misra'lar bilan boshlanadi:

Tama' noniga chun arzancha bo'lsa dast uzatmanglar,
Nabiyning sunnatini mahkam tuting bid'atga qaytmanglar,
Bu dunyo lazzati deb gavhari iymonni sotmanglar,
Xudoning qahridan aylang hazar chap yo'lg'a qaytmanglar,
Xudo: Kel banda! Deb chorlaydu(r), g'afolat birla yotmanglar,
Qiyomat kun Rasulullohning oldida uyotmanglar,
Mabodo qo'rqaman tarso sifat Do'zaxga ketmanglar.

[32:389.532-b]

Boborahim Mashrabning hayot va ijodiyotidan yaxshi ma'lumki, u juda oddiy, halol, chiroyli va poklikka asoslangan umr kechirgan. Shoir doim xalqqa adolatsizlik qilganlarga qarshi chiqqan, qaysi bir mansabdor va molu davlat egalarini insofga chaqirgan. Xususan ayrim insofsiz, o'zini manfaatini xalq manfaatidan ustun qo'ygan, ahli ma'rifatni ayamaganlarga, ijodkor o'z she'rlari orqali ro'yrost dardini to'kib tashlagan. Mansabparast, nokaslarning adolatsizligiga xususan tama' qurboniga aylanganligi bois chidamagan, natijada ularning bunday nojo'ya harakatlarini she'rlari orqali tanqid qilgan. Mutafakkirning buyukligi shundaki, ularni insofga chaqirib, ilmiga amal qilishlarini so'ragan, keyingi misralarda ularga qaratib “do'zaxga” kuymang o'zingizni ehtiyoj qiling, deb ta'lim bergan.

Xulosa, umuman olganda, Boborahim Mashrabdan bizga ikkita musabba' ma'naviy meros bo'lib qolgan. Ular o'n to'rt band, to'qson sakkiz misra', qirq to'qqiz baytdan iborat. Birinchi musabba' ishqiy mavzusiga yozilgan bo'lib, ma'shuqani portereti va jonona, rohat bag'ishlash fazilatlarini o'z ifodasini topgan. Ikkinchi musabba'da shoir ayrim nokas kishilar bilan birga, kecha va kunduz

toat ibodat bilan shug`ullansa ham, Payg`ambarimiz sunnatiga rioya qilmasdan tama'girlik, bid'atchilik bilan shug`ullanadiganlarni insofu adolatga chorlagan. Adibning musabba'lari bugungi tinch zamonamizga raxna solayotgan ayrim iymonsizlarga ham qaratib aytgan desak bo'ladi. Chunki shoir zamonida bo'lgan tama'girlik hozirgi kunda ham borligi achchinarli holdir. Ba'zan insoniyat tarixiga nazar solsangiz, ibtidoiy jamiyatda va quldorchilik jamiyatida bo'lgan illatlar keyinchalik ham mavjudligi, juda noxush holatdir. Chunki insonlarning ilk hayotlari chog`ida ularning ongi bunday rivojlanmagan edi. Bashariyat oldida bitta yo'l bor bu o'zlikni anglash, ma'rifatli, madaniyatli inson bo'lishdir. Boborahim Mashrab ham shunday aql zakovati yuksak odamlarni istagan. Shu bois o'z orzu umidlarini Oллоhdan istab, she'larida bayon etgan. Adib yuqoridagi misralari orqali bugungi avlodni tarbiyalashni maqsad qilgan, uni o'rganib, aniq xulosalar chiqarib, amaliyotga ezgulikni tatbiq ettishni istagan. Biz yoshlar va adabiyotshunoslarimizning vazifasi shunday ajoyib g`oyalarni tarfiib qilgan, ijodkorni asarini to'g'ri o'rganib, kelajak avlodga etkazishdir.

2.2. Shoir musabba'larining g'oyaviy-badiiy tahlili

Boborahim Mashrab buyuk mutafakkir, benazir shoir, Ilohi ishq kuychisi, mutasavvuf adib sifatida mumtoz adabiyotimizga ma'lum va mashhurdir. U o'zbek mumtoz adabiyotida mavjud ko'p she'riy janrlarda ijod qilgan. Shunday janrlardan biri bu yuqorida ko'rganimizdek musabba'dir. Boborahim Mashrabdan umuman olganda, ikkita musabba' ma'naviy meros bo'lib qolgan. Ular o'n to'rt band, to'qson sakkiz misra', qirq to'qqiz baytdan iborat.

Ishq mavzusi Sharq mumtoz adabiyotining o'zagini tashkil etadi. Hatto Boborahim Mashrabning qariyb sakkson foiz ma'naviy merosi ishq mavzusidan iboratdir. Shoir ishq dastidan devona bo'lishini qayta-qayta takrorlaydi. Shomu saharlar uni qo'llidan yig'laganini ta'kidlaydi. Adibning ijodida goh Ilohiy ishq tarranum etsa, goho zamini ishq hukmronlik qiladi. Buyuk ijodkorning lirik qahramoni, ishq oloviga yonib kulga aylanadi. Ba'zan mahbubaning nozu karashmalari unga huzur bag'ishlsa, ba'zan jafolari rohat beradi, shoir ma'shuqaning turli harakatlarini go'zal tarzda badiiy ifodalashga muvaffaq bo'lgan. Shoh shoirimizning ishq talqinidagi g'azallari, muxammaslari, musabba' va musaddaslari juda sodda va xalqona ruhda yozilgan. Yodlash, o'rganish, tushunish oson. Adibimizning har bir so'zi, iborasi, misrasi, baytu g'azallari va boshqa janrdagi ijodi, kitobxoni o'ziga maftun etadi. Unga ruhiy oziqa bag'ishlash bilan, qalbiga tinchilik, xotirjamlik, osoishtalikni va huzur halovat olib kiradi. O'quvchini hayot g'amu tashvishidan uzoqlashtirib uni sevishga, mehnat qilishga, o'qib o'rganishga undaydi. Fikrimizning isboti uchun shoirning ishq mavzusiga, ma'shuqa ta'rifi bag'ishlangan musabba'ni nazardan o'tkazishni maqsad qildik:

Ey, g'unchai navxezi gulistoni malohat,
Ey, toza niholi chamanoroyi nazokat,
Zulfi siyahing fitnayu, xolu xating-ofat,
Yo'lingda tegar boshima ming sangi malomat,
Maqbulsan, ey dilbari xush lahja bag'oyat,

Vah-vah, na go'zalsen, na ajoyib, na qiyomat,

Hay-hay, na sanam qilsa jafo jonima rohat.

[32:390.533-b]

Musabba'ning lirik qahramoni o'z mahbubasiga ko'nglini ochib yurakdan suhbat qiladi, suhbat asnosida bir-biriga bo'lgan samimiyat, mehr-oqibat oshadi, bemalol nozu karashma orqali gaplashib hazl mutoiba qiladi. Oralariga hech qanday sir qolmagandan so'ng, oshiq hayot bergan baxtli lahzalardan foydalanib ma'shuqa ta'rifi o'tadi. Mahbubusini yangi bog'dagi gulg'unchaga o'xshatadi, malohatda behad boyligini ta'kidlaydi. Nazokating go'zaliging benazirdir, xuddi toza niholga o'xshaydi. Aslida adib to'g'ri ta'kidlayapti, chunki yosh juvon qizlar behad zebo bo'lib, yangi qurilgan daraxtga o'xshaydi. Ularning jozibadorligi har qanday oshiqni hayratga qoldiradi. Ajib qalbgaga buyruq berib bo'lmaydi, agar mahbubaning zulfiya siyahsi (qorasi) ming fitna keltirsa, o'zini zeb berishlari ofat keltirsa ham, oshiq o'z yo'lidan qaytmaydi. Uni sevgisi yanada mustahkamlanib, qalbiga qattiq joy oladi. Tasavvurga sig'maydi, sevgilisini vasliga yetish uchun, qancha tuhmatlar yog'dirmasin, malomat sangi otilmasin, u oshiq yana sevisishni davom ettiraveradi. Dildor, dilbar, jonona unga shuncha maqbulki, uning butun jismiga zarra-zarra singib ketgan. Mahbuba shuncha go'zalki, go'yo Olloh unga dunyoni yarim chiroyni bergan. Shunday ajoyibki, buni faqat xayol qilish mumkin. Shuning uchun oshiqni sanami, qancha jafo qilsa ham, u joniga rohat bo'layotganligini baralla aytadi. Chunki mahbubaning qahri oshiqqa xursandchilik olib kelsa, nozu karashmasi huzur olib keladi. Sharq lirikasida oshiq va ma'shuq orasidagi muhabbat tuyg'ularining tasvirlashga adiblarimiz ana shunday ajoyib go'zal so'zlar va o'xshashi yo'q iboralarni topib yuksak mahorat bilan badiiy ifodalaydilar.

Adib musabba'ning keyingi bandida oshiqning ma'shuqqa bo'lgan muhabbatni yanada mustahkamlash uchun, uning zohiriy go'zalligi bo'lmish mahbubaning chiroyli va nozik badani xususida so'z yuritadi. Bilamizki badiiy adabiyot o'z she'riy san'atlari bilan go'zal va dilkashdir. Shoir ham

mahbubasining jismi haqida ta'rif berar ekan, uni bahor fasliga ko'karadigan lolaga o'xshatadi va ijodining nafosati, ta'sirchanligini ta'minlaydi. Ijodkor ma'shuqani faqat jismini badiiy tasvirlash bilan cheklanmaydi, balki vujudning barcha a'zolarini alohida-alohida tarzda badiiy tasvirlashga muvaffaq bo'ladi. Uni qadi, tani, ko'zi, husni mulkini tavsif va ta'rif etadi. Mashrab yaratgan oshiq juda madaniyatli, farosati baland, ziyrak uning har bir harakati kitobxonni hayratga qoldiradi. Oshiq avval ma'shuqani ta'riflashda tabiatning go'zal narsalari bilan qiyoslab maqtaydi, keyin asta uning jismini va a'zolarini tavsiflab, ruhiyatini ko'taradi. Ma'shuqani kayfiyati a'lo bo'lgandan so'ng o'zini unga bag'ishlashni aytadi. Qani bugungi yoshlar ham Boborahim Mashrabni she'riyatini chuqqur o'rganib, ul zot aytganlaridek ma'shuqqalarini qalbiga yo'l topsa edi. Chunki oshiq bechora ma'shuqa hajriga tamom bo'lgan, hatto biron sabru toqati ham qolmagan, tanasi ishq dardi bilan yonib, madori qolmagan, ahvoli nihoyat achchinarli ekanligi, shoir tomonidan yuksak mahorat bilan tasvirlangan.

Gulg'unchai nozik badanim, lola uzorim,
Shamshod qadim, siym tanim, chashmi xumorim,
Husn mulkida jonona bo'lan shahsuvorim,
Kel oldima, jon sadqa qilay senga, nigorim,
Ham sabru qaror qolmadi, ko'nglumda madorim,
Vah-vah, na go'zalsen, na ajoyib, na qiyomat,
Hay-hay, na sanam qilsa jafo jonima rohat.

[32:390.533-b]

Har qanday inson o'z oldiga qo'ygan orzularga yo narsaga etmasa, u juda ruhiy ezilib qiynalib, azobga qoladi, yig'laydi, fig'on chekadi. O'tirishiga ham, eyishiga ham, yurish turishiga ham halovati qolmaydi. Umrini bir daqiqasi necha kunlarga teng bo'ladi. Xo'sh oshiq ma'shuq visoliga etmasa, qanday xolatga tushadi? Yuqoridagi bandlarga ko'rdik, oshiq ma'shuqaga faqat xushomad urib, beqiyos ekanligini qayta-qayta takrorladi, uni boshini siladi, ammo foyda ko'rmadi. Natijada bechora oshiq yurkdan dodu fig'on chekadi, necha yildan beri vasliga yetmaganligini ta'kidlab, oshiqqa jabr qilayotganligini, uni og'ir ahvolini,

sarson bo'lib yurganligini shoir badiiy tasvirlaydi. Adib oshiqni mahbubasi visoliga yetish uchun, oshiqni qumri qushi, kabi nolon bo'lib yurganligini, o'xshatish san'ati orqali kitobxonga yetkazadi. Shularni ta'kidlar ekan, yo'llinga qurbon bo'lay, meni buncha azobga qoldirama, deydi bechora oshiq. Oshiqning mahbubasi shuncha ham go'zalki, u jahon malikalarining malikasidir, o'z davrining jononasidir. Shuning uchun u go'zal, ajoyib, g'aroyib afsonaviy mahbubadir. Devona oshiq esa, uning jafolariga toqat qilib, xuzur halovat oladigan mard o'g'londir. Darhaqiqat Boborahim Mashrabning ijodi behad yuksak mahorat bilan yozgan, ta'sirchan, o'quvchi qalbini larzaga keltiradigan mo'jizadir. Shu bois shoirning o'zi va ma'naviy merosi xalq qalbiga yashaydi. Bunga shak shubha yo'q:

Har dam mani bechora qilib dod ila afg'on,
Kuyingda yurubman necha yil besaru somon,
Ul sarv qading yodida qumri kabi nolon,
Qurboning o'lay, muncha mani qilma parishon,
San jumla jaxon sarvari, jononayi davron,
Vah-vah, na go'zalsen, na ajoyib, na qiyomat,
Hay-hay, na sanam qilsa jafo jonima rohat.

[32:390.533-b]

Adabiyot axloq fani sifatida insonlarni to'g'ri yo'lga solishga, barkamol shaxsni voyaga yetishiga, komil inson tarbiyalashga, asosiy manba hisoblanadi. Mumtoz adabiyotdagi g'oyalar yuksak ma'naviyat manbaidir. Ularning bebaholigi shundaki, mumtoz adabiyot vakillari tomonidan bayon qilingan g'oyalar hech bir davrda, zamonda va makonda o'z qimmatini yo'qotmaydi. Balki ularning qadri yanada oshib, yangi va yangi qirralari topilaveradi. Yosh avlodni axloqan pok voyaga yetishi uchun, badiiy adabiyotning roli kattadir. Chunki adabiyotdagi har bir ijobiy yo salbiy obrazdan kitobxon o'qib, o'rganib, ibrat oladi va kerakli xulosalar chiqaradi. Mumtoz adabiyotimizning asosini nazm tashkil etadi. Barcha ijodkorlar o'z she'rlari orqali jamiyatdagi illatlarni oldini olish uchun, pandu nasihatlar qilgan. Chunki, komil shaxsdan komil oila va

komil oiladan, komil jamiyat vujudga kelishini bilgan mutafakkirlar, ularning ta'lim va tarbiyasiga e'tibor bergan. Mumtoz adabiyotimizning buyuk namoyandalari ijodini o'rganar ekanmiz, nafs tarbiyasiga alohida e'tibor bergan. Chunki nafsini tanigan, o'zini taniydi. O'zini tanigan esa, birovga zarar keltirmaydi. Ig'vo, fitna fasod va hasadu tama'dan uzoqlashadi. Zulm va zulmkorlikdan yiroqlashadi. O'zini manfaatini o'ylab iymonsizlik qilmaydi, bid'atga berilmaydi. To'rt kun rohatlanib yashayman deb, boshqalarga zarar keltirmaydi. Birovga yuk bo'lmaydi, kimningdir hisobidan yashamaydi. Halol mehnat qilishni o'rganib, zamondoshini qadrlaydi, unga yordam qo'li cho'zganlarni esdan chiqarmaydi yo xiyonat qilmaydi. Doim Olloh buyurgan farzni ado qilib, Payg'ambarimiz sunnatiga rioya qiladi. Shoir shunday kimsalardan qo'rqib, qiyomat kuni Rasululloh suhbatida mahrum bo'lishidan qo'rqaman va qo'rqaman sizlar do'zaxga tushub qolishlaringizdan, deb uqtiradi:

Tama' noniga chun arzancha bo'lsa dast uzatmanglar,
Nabiyning sunnatini mahkam tuting bid'atga qaytmanglar,
Bu dunyo lazzati deb gavhari iymonni sotmanglar,
Xudoning qahridan aylang hazar chap yo'lg'a qaytmanglar,
Xudo: Kel banda! Deb chorlaydu(r), g'aflat birla yotmanglar,
Qiyomat kun Rasulullohning oldida uyotmanglar,
Mabodo qo'rqaman tarso sifat Do'zaxga ketmanglar.

[32: 389.532-b]

Shoir nega nokaslar do'zaxga tushib qolishlaridan qo'rqadi? Adib nima uchun jamiyatdagi zamondoshining kelajagi uchun qayg'uradi? Mashrab nima uchun o'z elini nojo'ya harakatidan xavotirda? Chunki buyuk ijodkor hech qachon o'zini o'ylagani yo'q. U xalq dardi bilan yashadi, u dardlarini o'z asarlarida bayon ettdi. Shu dardlar bilan bu dunyodan o'tdi. Gumroh xalqni to'g'ri yo'lga chorladi, ezgu amallar qilishni uqtirdi. Xalq manfaatini ko'zlab, dardmand shoir sifatida umrguzaronlik qildi.

Xullas, Boborahim Mashrab tomonidan bayon etgan musabba'lardagi g'oyalar kitobxonni ezgulikka chorlab, chiroyli umr kechirish yo'lini ko'rsatadi.

Shoir o'z she'riyatida orzu qilgan zamon bizga nasib qildi. Aqli raso kishi buni qadrini bilib, komilik sari intilishi kerak. Chunki hayot bir martagina beriladi. Unga faqat o'ylab qadam bosish, o'ylab gapirish, o'ylab ishni amalga oshirish lozim. Bunday imkoniyat ikkinchi marta berilmaydi. Inson borliqni aziz va mukarramidir, aqlu zakovat egalari buni yaxshi biladilar. Boborahim Mashrab shunday buyuk ijodkorlar sirasiga kiradigan, dardli shoir edi. Barkamol shaxsni tarbiyalashda adibning ma'naviy merosidan unumli foydalanish har bir ma'rifatli insoning insoniylik burchidir.

2.3. Adib musabba'larida she'riy san'atlarning qo'llanilishi

Adabiyotning jozibadorligi va dilkashligi, qalbga, ruhga ijobiy ta'sirining boisi uning badiiyatidir. Badiiyatning negizini Sharq adabiyotining turli she'riy san'atlari tashkil ettadi. Olam odamga sig'adi, lekin nimgadir odam olamga sig'maydi. Ammo ana shu katta olamga sig'magan odam, adabiyotdan ruhiy quvvat olib, o'zini judda yengil his qiladi. Qalbi orom topib huzur qiladi, go'yo shoir kitobxonni dardini bilgandek, yo xayolidan o'tayotgan sirlar olamni anglagandek tuyuladi. O'quvchi xususan nazmni mutolaa qilar ekan, ko'ngli zavq shavqdan to'lib osmonlar tomon sayr etadi. Dildan bahra olib, butun jismini qandaydir osoyishtalik egalab oladi. Shunda ijodkor adibning yuksak mahoratiga tahsinlar aytadi. Biz ham Boborahim Mashrab ijodini o'rganar ekanmiz yo tadqiq qilarkanmiz shunday holatlarni boshdan kechirdik desak, mubolag'a bo'lmaydi.

Boborahim Mashrabning o'zi benazir inson edi, ijodi esa nihoyat bebahodir. Allomaning she'riyatini qancha ko'p mutolaa qilsangiz shuncha ko'p bahra olasiz. Uning shoirlilik mahorati haqida so'z yuritish yo ta'rif etish shart emas, chunki uning iste'dodi maqtovlarga muhtoj emas. Uning she'rlari hali o'zi hayot bo'lgan davrda, og'izdan og'izlarga o'tib, butun Movarounnahrda shahar qishloqlarga borib yetgan. Barcha bazmu jamshidlarga uning g'azallari qo'shiq qilib kuylagan. O'sha davrlarda adibning ma'naviy merosi oddiy xalqdan boshlab, podshohlarni qalbigacha kirib borgan. Biz bu bo'limda tadqiqotimizning manbasi bo'lgan musabba'ning she'riy san'atlari xususida ayrim mulohazalarimizni bayon etishni istadik.

Mumtoz adabiyotimizga ko'p qo'llaydigan she'riy san'atlaridan biri o'xshatishdir. Adiblarimiz tabiat va atrof muhitimizni o'rab olgan go'zal narsalardan yangi va yangi o'xshatishlarni yaratadilar. Shu orqali kitobxon diqqatini jalb qilib, ularni o'sha buyumlar bilan tanishtiradilar, natijada o'quvchini dunyoqarashi kengayib, xayolot olami rivojlanib, qalbiga ezgu amallar vujudga keladi. Quyidagi musabba'ning oxirgi bandida Boborahim Mash

rab bir nechta o'xshatish san'atidan unumli foydalangan:

Kokullaring halqasini oy ko'rubman,

Jon rishtasin har torig'a barjoy ko'rubman,

Kipriklaring o'qlarini yoy ko'rubman,

Gisularing sunbulini barpoy ko'rubman,

Mashrabni o'zim oshiqi xudroy ko'rubman,

Vah-vah, na go'zalsen, na ajoyib, na qiyomat,

Hay-hay, na sanam qilsa jafonima rohat.

[32: 390.533-b]

Keltirgan musabba'ning birinchi misrasida adib ma'shuqaning "kokullarini halqasini", yangi chiqqan oyga o'xshatib "oy ko'rganligi", aytsa, "jon" ko'rilmas narsa, lekin shoir uning rishtalarini ko'rib, "torg'a" o'xshatgani shoirning yuksak mahorat sohibi ekanligidan dalolat beradi. Keyingi misrada inson ko'zini himoyachisi "kiprikni" kamon o'qiga o'xshatgani, "zulf"ni "sunbul"ga va adib o'zini "oshiqqa" o'xshatgani she'riy misralarni ta'sirchanligini ta'minlash bilan, kitobxonni diqqatini ma'shuqa go'zaligiga qaratilgan. Go'zalik inson vujudiga halovat bag'ishlash bilan, qalbiga rohat beradi. Go'zalikka oshno inson birovga yomonlikni ravo ko'rmaydi. Xulosa, shoir ijodidagi o'xshatish san'ati benihoyat dilkashdir.

XULOSA

Boborahim Mashrab nomi bizning maqtoqlarimizga, ta'rifu tavsiflarimizga muhtoj emas. Buyuk adib o'z zamonasidayoq cheksiz shon-shuhratga ega bo'lgan, shoirlar shohi deb nom olgan, tug'ma iste'dod sohibidir. U kamdankam uchraydigan, hayotda o'zidan o'zi zohir bo'ladigan ilm – ilm-ul Laduni deb ataladigan ilohiy marhamatga erishgan nodir insondir. Sodaroq qilib aytsak Ollohning eng yaxshi ko'rgan bandalarining biri edi. Uning muxlislari orasida devonayu qalandardan tortib, sultonlargacha bor edi. Uni fuqarodan tortib xonlargacha o'ziga pir qilishni orzu qilar edilar. Uning qobiliyatidan nafaqat oddiy xalq, ilm ahli, hatto fikru zakovati qilni qirq yorib yubora oladigan donishmandlar ham hayratga tushganlar.

Boborahim Mashrab o'zbek mumtoz she'riyatiga yangi ruh va o'ziga xos ijodiy nafas olib kirgan ulkan san'atkordir. Mashrab she'riyati o'zining samimiyligi va hayotiyliigi bilan ajralib turadi. Bu she'riyat haqiqiy shoir shaxsi va qismatini mukammal bir tarzda namoyon etishi bilan ham e'tiborga molikdir. Undagi mazmun kishilar baxtli umr kechirishni targ'ib va tashviq qiladi. Qalblardagi dardlarga malham bo'ladi. Millonlab odamlarni ezgullik tomon chorladi va chorlayapti.

Afsuski, Mashrabni butun dunyo bilgani, g'azallarini, uning haqidagi qissa va hikoyatlarni sevib o'qigani, eshitgani holda uzoq yillar davomida biz shoirning hurmatini, izzat va ehtiromini joyiga qo'ya olmadik. Ayniqsa, so'nggi yetmish yil mobaynida imkoniyatlarimiz katta bo'lgani holda Mashrab ijodi yetarlicha targ'ib qilinmadi.

Shukrki, Istiqlol bizni jaholat va g'ofillikdan ozod etdi. O'tmish allomalarimiz merosiga munosabat tubdan o'zgardi. Jumladan, Boborahim Mashrab shaxsi va ijodiga ham. Shoir asarlarida tarannum etilgan g'oyalar barcha zamonlar uchun ahamiyatli bo'lib, bugungi iistiqlol mafkurasi uchun xizmat qiladigan umumbashariy masalalarga murojaat ham Mashrab ijodida talayginadir. Jumladan, adib boshqa janrlar qatori musaddas janrida ham ijod qilganki, ularning soni yettita bo'lib, jami 67 band, 201bayt, 402 misradan iborat bo'lib,

yuqorida ko'rganimizdek turli mavzularga ijod qilingan. Adib goh Ollohga murojaat qilsa, goho Payg'ambarimizdan madad so'raydi va ba'zan ma'shuqaga ishq izhor qiladi. Adib tomonidan ijod qilgan musaddaslarning asosiy mavzusini ishq, sevgi, sadoqat, muhabbat kabi go'zal insoniy tuyg'ular tarranum etilgan. Bularni to'g'ri o'rganib, kerakli xulosalar chiqarib, shoir tomonidan bayon etgan go'zal g'oyalarni amalga tatbiq etsak, adib oldidagi va insonlar oldidagi qarzimizni ado qilgan bo'lamiz. Xususan yuqorida keltirgan musaddasdagi yuksak mahoratga qarang, o'ziga xos tarzda, "ko'zinga mix qoqqanmusan" birikmasini diqqat bilan o'rganing, shoirning iste'dodiga tan berishdan boshqa choramiz yo'q. Mix tik turadigan, qayrilishga iloji yo'q, yana bir joyga turadi, harakatdan mahrum, adibning oshiqi beqarori ma'shuqani behad dono va ziyrakligini yuksak diyd bilan bayon qilishga muyassar bo'lgan. Chunki har qanday zamonda va makonda ma'shuqalar sadoqatli bo'lmagan. Sevimli adibimiz o'quvchini butun borlig'ini o'ziga jalb qilishi ham, katta mahoratdan dalolat beradi. Sharq mumtoz adabiyotning zo'rligi ham ana shunday chiroyli, maftunkor o'xshatishlarni yartishidadir. Mumtoz adabiyotimizning ko'p ijodkorlari betakror she'riy san'atlarni kashf ettib shu orqali nafaqat o'z yurtida, balki jahon miqyosida o'z o'rmini topdi.

Xulosa Boborahim Mashrabdan bizgacha ikkita musabba' ma'naviy meros bo'lib qolgan. Ular o'n to'rt band, to'qson sakkiz misra', qirq to'qqiz baytdan iborat. Birinchi musabba' ishqiy mavzusiga yozilgan bo'lib ma'shuqani portereti va nozu karashmalari, go'zalligi o'z ifodasini topgan. Ikkinchi musabba'da shoir ayrim nokas kishilar kecha va kunduz toat ibodat bilan shug'ullansa ham, Payg'ambarimiz sunnatiga rioya qilmasdan tama'girlik, bid'atchilik bilan shug'ullanadigan, kimsalarni insofu adolatga chorlagan. Adibning musabba'lari bugungi tinch zamonamizga raxna solayotgan ayrim iymonsizlarga ham qaratib aytgan desak bo'ladi. Chunki shoir zamonida bo'lgan tama'girlik hozirgi kunda ham ba'zan bo'lib turgani, achchinarli xoldir. Shoir yuqoridagi misralari orqali bugungi avlodni tarbiyalashni maqsad qilgan, uni

o'rganib, aniq xulosalar chiqarib, ezgulikni tatbiq ettishni istagan. Biz yoshlar va adabiyotshunoslarning vazifasi shunday ajoyib g'oyalarni targ'ib qilishdir.

Boborahim Mashrab tomonidan bayon etgan musabba'lardagi g'oyalar kitobxonni ezgulikka chorlab, chiroyli umr kechirishni uqtiradi. Shoir orzu qilgan zamon bizga nasib qildi. Aqli raso kishi buni qadrini bilib, komilik sari intilishi kerak. Chunki hayot bir martagina beriladi. Unga faqat o'ylab qadam bosish, o'ylab gapirish, o'ylab ishni amalga oshirish lozim. Bunday imkoniyat ikkinchi marta berilmaydi. Inson borliqni aziz va mukarramidir, aqlu zakovat egalari buni yaxshi biladilar. Boborahim Mashrab shunday buyuk ijodkorlar sirasiga kiradigan, dardli shoir edi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

Siyosiy adabiyotlar:

1. Karimov I. A. Istiqlol va ma'naviyat. Toshkent: "O'zbekiston", 1993, 169 b.
2. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. Toshkent: "O'zbekiston", 1997, 325 b.
3. Karimov I.A. Olloh qalbimizda, yuragimizda. Toshkent: "O'zbekiston", 1998, 32 b.
4. Karimov I.A. Barkamol avlod orzusi. – Toshkent: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2000, 245 bet.
5. Karimov I. A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. – Toshkent: "Sharq" nashriyot-matbaa konsterini Bosh tahririyati, 1998, 31 bet.
6. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch. Toshkent: "Ma'naviyat", 2008, 176 b.

Ilmiy va badiiy adabiyotlar:

7. Abdullaev V. O'zbek adabiyoti tarixi. Ikkinchi kitob. – Toshkent: «O'qituvchi», 1976, 660 bet.
8. Abdullaev I. «Mabdai nur» jilosi. – «Qishloq haqiqati», 1992 yil 22 may.
9. Abdug'afurov A. Ziyoli barchaga barobar. – "O'zAS", 1991 yil 17 may.
10. Abdug'afurov A. Boborahim Mashrab Namangoniy. – "O'TA", 1992, 3-4 son, 58-62-betlar.
11. Abdug'afurov A. Mashrabshunoslikning ba'zi muammolari: [O'zbek shoiri Boborahim Mashrabning ijodi va hayoti haqida mulohazalar] //O'zbek tili va adabiyoti.-1993.-№3.-B.65-74.
12. Abu Homid G'azzoliy. Ey, farzand. "Ayyuhal valad" asarning o'zbek tilidagi tarjimasi (qayta nashr). Toshkent: "Movarounnahr", 2005, 96 bet.
13. Alisher Navoiy. Hayrat ul-abror. Mukammal asarlar to'plami. XX tomlik, 7-tom. Toshkent: "Fan", 1991, 392 b.
14. Alisher Navoiy. Farxod va Shirin. Mukammal asarlar to'plami. XX tomlik, 8-tom. Toshkent: "Fan", 1991, 544 b.

15. Alisher Navoiy. Layli va Majnun. Mukammal asarlar to'plami. XX tomlik, 9-tom. Toshkent: "Fan", 1992, 356 b.
16. Alisher Navoiy. Sab'ai sayyor. Mukammal asarlar to'plami. XX tomlik, 10-tom. Toshkent: "Fan", 1992, 448 b.
17. Alisher Navoiy. Saddi Iskandariy. Mukammal asarlar to'plami. XX tomlik, 11-tom. Toshkent: "Fan", 1993, 640 b.
18. Valixo'jaev B. Mumtoz siymolar. Toshkent: A, Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2002, 304 b.
19. Vohidov R. Homidiy H. Himmat inoyatsiz bo'lmas. Kitobda: Olimi nuktadon o'zum//Maqolalar to'plami. – T., 2006, 15-24-betlar.
20. Vohidov R. Mashrab ijodi Fitrat talqinida. – "O'TA", 1997, 4-son, 20-26-betlar.
21. Zokirov M. Boborahim Mashrab. Adabiy-tankidiy ocherk. – T.: Badiiy adabiyot nashriyoti. 1966. 58 b.
22. Zokirov M. Mashrab oldidagi gunohim. «Yosh leninchi» gazetasi, 1990 yil 24 yanvar.
23. Komilov N. Tasavvuf. Ikkinchi kitob. Tavhid asrori. – T.: ASN, 1999, 208 bet.
24. Kimsan Mashrab Turon o'g'li. Devona Mashrab: Badiya.-T.: Alisher Navoiy nom. O'zbekiston Milliy k-nasi nashriyoti, 2006.-98 b.
25. Mashrab Boborahim. Mabdai nur. Tadqiq qiluvchi, eski o'zbek yozuvidan nashrga tayyorlovchi, lug'at va izohlarni tuzuvchi Hoji Ismatulloh Abdulloh. – T.: «Fan» nashriyoti, 1994, 314 bet.
26. Mashrab. Tanlangan asarlar. Nashrga tayyorlovchi A.Abdug'afurov. – T.: ASN, 1971, 192 bet.
27. Mashrab Boborahim. Mehribonim, qaydasan: G'azallar, muxammaslar... Nashrga tayyorlovchi va so'ngi so'z muallifi J.Yusupov; So'z boshi mualliflari G'.Salomov, N. Komilov; Mas'ul muharrir: V.Rahmonov. – T.: ASN, 1990, 416 bet.
28. Mashrab Boborahim. Dilim daryoyi nurdur. Tanlangan she'rlar. – T.:ASN, 2004,-232 bet.

29. Mashrab. Devon. Nashrga tayyorlovchi Jaloliddin Yusufiy. – T.: «Yangi asr avlodi», 2006, 618 bet.
30. Mashrab Boborahim. Mabdayi nur: Saylanma gʻazallar va mustazodlar /Nashrga tayyorlovchilar: G.Niyozov, K.Ahmedov; Masʻul muharrirlar: Hasanxoʻja Muhammadxoʻja oʻgʻli, I.Abdullaev, Maxmud Hasaniy.-T.: Fan, 1994.-48 b.
31. Mashrab Boborahim. Dilim daryoi nurdir: Tanlangan sheʼrlar /Soʻz boshi A.Abdugʻafurovniki.-T.: Gʻafur Gʻulom nom. Nashriyotmatbaa ijodiy uyi, 2004.-232 b.
32. Mashrab Devon /Masʻul muharrir V.Rahmonov.-T.: Yangi asr avlodi, 2006.-608 b.
33. Mashrab. Qatralar, bir-bir qoʻshulsa oxiri ummon boʻlur...: Garchi zohidi gadomag, arshdin oʻtti himmatim...: [Gʻazallar] //Qishloq haqiqati.-1992.-22 may.
34. Mashrab. Gʻazallar /I.Abdullaev tayyorlagan //Xalq soʻzi.- 1992.-22 may; Oʻzbekiston ovozi.-1992.-22 may.
35. Muhammad Kamol. Hikmatlar va ibratlar. Tarjimonlar va nashrga tayyorlovchilar: Abdulatif Abdullaev, Nodir Joʻraqoʻziev. Toshkent: “Istiqlol”, 2005, 84 b.
36. Sulaymonov Sh. Fitratning «Mashrab» tadqiqoti xususida. Kitobda: Alloma adabiyotshunos. «Mutafakkirlar merosi» seriyasi. 1-kitob. – T.: «Fan» nashriyoti, 2006, 53-55-betlar.
37. Turdimov J. Lirik kechinma muammosi. – “OʻTA”, 1997, 5-son, 14-16-betlar.
38. Toʻxsanov K. «Mabdai nur» asarining mundarijasi haqida. Filologiya va usuliyot masalalari. Ilmiy-usuliy maqolalar toʻplami 1-kitob. T.: «Fan» nashriyoti, 2008, 32-36-betlar.
39. Shoh Mashrab qissasi. T.: “Sharq”, 1991, 55 bet.
40. Gʻafurov Gʻ. Sharq javohirlari: Badialar. – T.:«Maʼnaviyat»,2000, 184 bet.
41. Hayitmetov A. Mashrab lirikasi. – “Sharq yulduzi”,1980, 3-son, 46-51-betlar.
42. Haqqul I. Sheʼriyat – ruhiy munosabat. Adabiy-tanqidiy maqolalar. – T.: ASN, 1989.

43. Haqqul I. Tasavvuf va she'riyat. – T.: ASN, 1991, 184 bet.
44. Haqqul I. Irfon va idrok. – T.: «Ma'naviyat», 1998, 160 bet.
45. Haqqul I. Tasavvuf saboqlari. Buxoro. 2000, 142 bet.
46. Hojiahmedov A. Mumtoz she'riyatida badiiy san'atlar. Toshkent: Sharq nashriyoti matbaa konsterni bosh tahririyati, 1998, 106 b.
47. Hoshimxonov M. Mashrabai mo''tabar o'zum. – T.: «Sharq», 2001.
- 48 . Hoshimxonov M. Mashrab hayoti va ijodiga doir yangi mulohazalar. – «Yoshlik», 2005, 6-son, 46-48-betlar.
49. Hamroeva D. Mashrab haqidagi afsona va haqiqatlar // Ishonch. -2004. -7 may.
50. Hoshimov M. Boborahim Mashrab hayoti va ijodiy merosi // Qadriyat. -2005. -9 iyul.
51. Hoshimxonov M. Xaloyiq kuymasun hargiz yoxud Mashrab ijodida ijtimoiy adolat va kenglik: [Boborahim Mashrab hayoti va ijodi haqida] // Fidokor. -2005. -29 noyab.
- 52 . Hoshimxonov M. Hech kimga yo'qtur nisbatim: [Shoir Mashrab she'rlarining tasavvufi haqida] // Hurriyat. -2005. -28 sent.
53. Qur'on qissalari. (1-kitob). Toshkent: "Toshkent islom universiteti" nashriyot – matbaa birlashmasi, 2004. 78 b.

Qo'shimcha adabiyotlar ro'yxati:

54. Arxiv.uz
55. Kutubxona.som.
56. Ziyo. uz.